

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

4 – kurs talabasi

MAHMUDOVA FARANGIZ


**ABDURAHMON AKBARNING LIRIK QAHRAMON YARATISH
MAHORATI**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

f.f.n. A.Hamdamov



**“Himoyaga tavsiya etilsin”
Filologiya fakulteti**

dekani: _____ dots.I.I.Xudoynazarov

“ _____ ” _____ 2014 yil

QARSHI – 2014

MUNDARIJA

Kirish

I. BOB. O‘ZBEK BOLALAR SHE’RIYATI RIVOJIDA ABDURAHMON AKBARNING O‘RNI

1.1. Abdurahmon Akbarning ijodiy yo‘li .

1.2. Abdurahmon Akbar ijodining mavzu ko‘lami

II. BOB. ABDURAHMON AKBARNING BADIY MAHORATI

2.1. Shoirning lirik qahramon yaratish uslubi

2.2. Shoir she’rlari badiiyati

Umumiy xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillikka erishgan xalqimizning iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotida yangi davr boshlandi, ma'naviyat masalalariga e'tibor har qachongidan ham kuchaydi. Zero, O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek, ma'naviyat "doimiy harakatdagi uzluksiz jarayon bo'lib, taraqqiyot davom etar ekan, uning shiddatli yurishi tufayli ma'naviy hayot oldiga qo'yiladigan talablar ham muttasil paydo bo'laveradi"¹. Ana shu talablar adabiy-badiiy jabhada ham yangicha badiiy tafakkur va tamoyillarni zarur qilib qo'ydi. Ular hozirgi she'riyatimizda yorqin ko'rinib, tobora kengayib bormoqda. Bugungi she'riyatda asosiy diqqat inson shaxsining botiniy olamiga, qalbidagi turfa evrilishlarga va ma'naviy kamolot yo'lidagi holatiga qaratilmoqda. Tabiiyki, bunda insonning voqelikka munosabati, davr farzandi sifatidagi qiyofasi, his-tuyg'ularining tadqiqi poetik tafakkurning markaziga qo'yilmoqda. Milliy g'oya va mustaqillik mafkurasi she'riyatimizning asosiy mohiyatini belgilovchi omil bo'lib qoldi. Bu esa o'z navbatida, voqelik va inson talqinida yangicha g'oyaviy-badiiy izlanishlar va individual yondashuvlarni taqozo etmoqda. O'tgan asrning 90-yillaridan kuchaya boshlagan bu jarayonda milliy she'riyatimizdagi jiddiy siljish va sifat o'zgarishlari uchun haqqoniylik darajasi yangi bosqichga ko'tarildi, bugungi inson murakkab xilqat sifatida o'zining dardlari bilan ancha chuqur kashf etila boshlandi.

Shu boisdan, jamiyatning kelajagi bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash jamiyatning eng muhim masalalaridan hisoblanadi. Bu borada bolalar adabiyoti o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Chunki, bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan, tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalar xususida yosh kitobxon tushunchasi darajasida ma'lumot beradigan sho'x va o'ynoqi, tarbiyaviy ahamiyat kasb etadigan asarlarni yaratish ijodkorlar oldidagi vazifalardan biridir. Shu sababli ham shoir-u nosirlarimiz hazilkash, sho'x, o'yinqaroq, topqir bolakaylar haqida

¹ Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б.171.

hazil-huzulga boy yumoristik she'r-u hikoyalar, doston-u qissalar bitadilar; nabotot va hayvonot dunyosini bolalarning hayratomuz nigohi bilan qayta-qayta kashf qiladilar; parranda, darrandalarni misol qilib, ibratomuz ertag-u masallar yozadilar; Vatan – kindik qoni to'kilgan muqaddas Ona tuproqqa sadoqat, ustozlar va ot-onalar hurmatini sharaflash ruhidagi she'r-u dostonlar yaratadilar; bolalarni ilm-ma'rifat nuridan bahramand bo'lishga chorlovchi – maktab, kitob va boshqa turli o'quv qurollarini madh etuvchi asarlar bitadilar va hokazo. Albatta, bu mavzularning har biri ham umrboqiyligi va bolalar adabiyotida doimo sezilarni mavqe kasb etishi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Ana shu haqiqatlarni har bir avlod qanday qayta kashf qilyapti va bu kashfiyotlarning badiiyat darajasi qaytarzda ekanligini namayon etish bugungi bolalar adabiyotining dolzarb masalalaridan biridir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ma'lumki, bolalar adabiyotini umumadabiyotdan farqlab turadigan bir qator o'ziga xosliklar mavjud bo'lib, ular, dastavval, ma'rifiylik va tarbiyaviylikda aks etadi. Zero, bolalar adabiyoti, avvalo, ta'lim va tarbiya beradi. Ana shu ta'lim-tarbiyani go'zal badiiyat jo qila olish esa ijodkordan ulkan mahoratni talab qiladi va, shu boisdan ham, barcha qalamkashlar bolalar shoiri yoxud yozuvchisi bo'la olmaydilar.

70 – 80-yillar o'zbek bolalar she'riyatini shu ma'noda dolg'ali, qasirg'ali davr she'riyati deb baholash mumkin. Zero, 70 – 80-yillarning birinchi yarmida hurfikrlilikning keskin bo'g'ilishi dastlab badiiy adabiyotda, ayniqsa, she'riyatda majoziy fikr kuchayishi, ijodkorlar dardlari imo-ishoralar, ramzlar, majozlarga ko'chishi bilan xarakterlansa, 80-yillarning ikkinchi yarmida demokratiya shabadalarining kun sayin kuchliroq esa boshlashi badiiy adabiyotda tom ma'nodagi erksevarlik tuyg'ularining ochiq-oydin namoyon bo'lishiga olib keldi.

Ma'lumki, bolalarga bag'ishlangan asarlar mazmun jihatidan ham bir necha turkumlarga ajratiladi va bunday toifalashda tasvir uslubi asosiy o'rin tutadi. Zero, bolalarga mo'ljallangan asarlarning bir qismida ijodkorlar katta hayot tajribasiga ega bo'lgan yoshi ulug' kishi sifatida o'z qarahlarini yosh bolaning

tasavvur va qarashlari bilan uyg'unlashtirib ifodallasalar, yana bir qismida bevosita bolalar nomidan hikoyalash uslubi ustivor.

Abdurahmon Akbar she'rlarida biz yanada o'zgacha qahramonga duch kelamiz. Bu og'ir-bosiq, o'ychan, vaqtdan ilgariroq ulg'ayib qolgan bolakaylar qalbidagi davrlar ayni 70 – 80-yillar bolalarning o'y-fikrlariga eshligi bilan ham shoir qalamidan to'kilgan samimiy tuyg'ular in'ikosi sifatida namoyon bo'ladi.

Binobarin, aynan kichik yoshdagi kitobxon bunday she'rni "mehnat" qilib, boshqotirma yechganday o'qiy olganidan zavqqa to'ladi. Abdurahmon Akbar ijodidagi raqamli she'rlarning mazmun jihatidan mukammalligi esa o'z-o'zidan, shakl va mazmun uyg'unligini ta'minlaydi. Bolalar adabiyotida Abdurahmon Akbarning raqamli va rasmlı she'rlari alohida o'rganilmagan. Biz mazkur bitiruv malakaviy ishimizda shoir Abdurahmon Akbar ijodining kam yoritilgan qirrasini o'rganishga o'rganishga harakat qildik.

Shoir ijodining o'ziga xos - individual xususiyatlariga ilmiy – nazariy baho berish mazkur ishimizning dolzarbligini ko'rsatadi.

Tadqiqot maqsadi. O'zbek bolalar adabiyotining taraqqiyot tamoyillari masalasini yoritish jarayonida shoir Abdurahmon Akbarning ijodi, bolalar she'riyatiga yangi shakliy ko'rinishlarning olib kirganligi hamda harflarni raqamlarda ifodalanish san'atini yoritishni o'z oldimizga maqsad etib qo'yganmiz.

Tadqiqot vazifalari. Tadqiqot ishi maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni yoritish va amalga oshirish nazarda tutildi:

- ramzlarda ifodalangan she'rlarning ma'nosini aniqlash.
- harflarni raqamlarda ifodalanishini bolalarning fikrlash qobiliyatini o'stirishdagi ahamiyati ko'rsatish.
- rasmlı she'rlarning kichkintoylar dunyoqarashini o'stirishdagi ahamiyatini aniqlash.

Tadqiqotning obekti va predmeti sifatida Abdurahmon Akbarning “Uyquchining tushlari” to‘plamidagi she’rlari tahlilga tortildi.

Himoyaga olib chiqadigan asosiy holatlar:

80-yillarning ikkinchi yarmida demokratiya shabadalarining kun sayin kuchliroq esa boshlashi bolalar adabiyotida ham erksevarlik tuyg‘ularining ochiq-oydin namoyon bo‘lishi bugungi bolalar adabiyotining o‘ziga xosligini belgilashga xizmat qiladi. Abdurahmon Akbar ijodidagi harflarni raqamlarda ifodalanishi, rasmlar orqali bolalar shuurini o‘stirish, yangi shakllardagi she’rlarning bolalar she’riyatida paydo bo‘lishi kuzatildi.

Ilmiy yangiligi. Ishda shoir Abdurahmon Akbar she’riyatining rang-barang jihatlarini poetik tasvir va imkoniyatlarini tadqiq etish ishning o‘ziga xos ilmiy yangiligini belgilashga xizmat qiladi. Shuningdek, ishda muammoning quyidagi jihatlarini yangilik sifatida qayd etish lozim:

- ramziy she’rlarning tag ma’nosi adabiyotshunoslarning nazariy fikrlari orqali o‘rganildi;

- harflarni raqamlarda ifodalanishi, rasmlar orqali bolalar shuurini o‘stirish, yangi shakllardagi she’rlarning bolalar she’riyatida paydo bo‘lishi kuzatildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. BMI xulosalari 80-yillar o‘zbek bolalar she’riyati taraqqiyotini Abdurahmon Akbar ijodi misolida dalillashning usullari va uslubini, rang-barang ko‘rinishlarini ochib berish jihatidan muhim. BMI materiallaridan kollej va litseylarda o‘zbek bolalar adabiyoti, xususan she’riyati bo‘yicha nazariy va amaliy o‘quv mashg‘ulotlari olib borishda, shuningdek, tanlov fanlarini o‘qitishda foydalanish mumkin. Bular tadqiqotning amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Ishning tuzilishi va hajmi. kirish, to‘rt faslni o‘z ichiga olgan ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I. BOB. O‘ZBEK BOLALAR SHE’RIYATI RIVOJIDA ABDURAHMON AKBARNING O‘RNI

1.1. Abdurahmon Akbarning ijodiy yo‘li .

Abdurahmon Akbar 1962 yil 22 aprelda Toshkent viloyatining Niyozbosh degan qishlog‘ida tavallud topdi. U 1969-1979-yillarda qishloqdagi 33 – o‘rta maktabni tugatdi.

1975-yil dekabr oyida “Yangiyo‘l” tuman gazetasi muharririga uchrashib, gazeta qoshidagi shoir va muallim Obid Rasul rahbarlik qilgan “Orzu” adabiy to‘garagiga faol ishtirok etib bordi. Shoirning “Oyijonim yopgan non ” nomli ilk she‘ri 1976 yil 28 oktabr kuni “Yangiyo‘l” gazetasi sahifasida chop etildi.

Bolalar uchun yozilgan she‘rlarini O‘zbekiston xalq shoiri Quddus Muhammadiyning taklifi bilan 1982 yilda “Yosh gvardiya” (hozirgi Yangi asr avlodi) nashriyotiga chop etish uchun topshirdi. Shoirning ko‘plab she‘rlari 1984 yil “Boychechak” jamoa to‘plamida e‘lon qilindi.

1986 yil yangi tashkil etilgan “Yulduzcha” (bugungi Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi)da ish boshlagan shoir hozirgacha ana shu nashriyotda muharrir vazifasida ishlab kelmoqda.

Tohir Malik, Anvar Obidjon, Tursunboy Adashboyev, Muhammad Rahmon, Hamza Imonberdiyev singari noshir va shoirlar bilan birga mehnat qilgan va ko‘p narsalarni ulardan o‘rgangan. Abdurahmon Akbar o‘zi haqida gapirganda: “Ehtiyotkor toshbaqa” nomli to‘plamimning Usmon Nosir nomidagi mukofot bilan taqdirlanishida (1991), O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga qabul qilinishimda (1995) shu ustoz akalarimning bevosita va bilvosita xizmatlari bor”, 1-deb ta’kidlaydi. She‘r va tarjimalari jamoa to‘plamlarida o‘quv darsliklariga kiritildi.

Chop etilgan kitoblari: “Kichkintoy va paxtaoy” (M.Qodirov bilan birgalikda, 1987), “So‘zlovchi yomg‘ir” (I.Donish, D.Shokirovlar bilan birgalikda,

1990), “Ehtiyotkor toshbaqa” (1994), “Yozning tug‘ilgan kuni” (1992), “Kuylayotgan bog” (1994), “O‘yinqaroq bulutch” (1996), “O‘rdakcham”, “Jonli savatcha” (2005), “Uyquchining tushlari” (2006) kabi she’riy to‘plamlari nashr etildi.

Bolalar adabiyoti, ayniqsa maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga mo‘ljallangan asarlarning o‘ziga xosliklari xususida gap ketganda, avvalo hayrat tilga olinadi. Zero, bu ko‘hna olamdagi barcha narsalar – hayvonot nabobot, bani Odam va insoniy munosabatlar silsilasining har bir zarrasi har bir bolakay uchun qayta yaraladi. Shu sababli ham bolakay qishda so‘ppayib daraxtlarning bahorda birdan yam – yashil barg chiqarib, oppoq qorday gulga burkanishidan cheksiz hayratga tushadi. Shu sababli ham shu bijir – bijir savollari bilan Sizni gangitib qo‘yadigan bolakay ayni zamonda eng buyuk tilshunos ham. U har bir narsani nomini o‘rganar ekan, uni shunchaki qabul qilib qo‘ya qolmaydi, balki har bir ism jismiga mos bo‘lishini ham talab qiladi.

Abdurahmon Akbarning she’rlarini o‘qir ekansiz, ana shu bijildoq bolakay har qadamda oldingizdan chiqaveradi. Ulardan biri Shuhratjon degan yigitcha. U “Bir daftar savol” tuzib, ularni o‘zicha “Bekatda tug‘ilgan savollar”, “Yo‘lda tug‘ilgan savollar”, “Maktabda tug‘ilgan savollar”, “Uyda tug‘ilgan savollar” singari turli guruhlariga ham ajratib olgan. O‘sha savollardan ba’zilariga quloq tuting:

“Gulzor” deb atalgan bu keng bekatning

Atrofida nega gul o‘smas-

deb o‘z-o‘ziga savol beradi bolakay bekatda turganida. Chunki uning nazdida (va aslida ham) ism jismiga mos bolishi kerak edi-da!

Bobongizdan so‘raganmisiz

Bobosining kim bo‘lganini- deb o‘ylaydi bola maktabda.

Dada, dada, o‘zbek degani

O‘ziga bek deganlarimi- deb so‘raydi bola dadasidan.

Bu savollar shunchaki savol emas, aslida ularning har biri katta ma’naviy-ma’rifiy mohiyat kasb etadi. Chunki aslida ham bobosining bobosi kim ekanligini biladigan bolalar yurtimizda necha dona ekan?

“O‘zbek o‘ziga bek deganlarimi” savoli esa ommaviy axborot vositalari – gazeta-jurnal va radio-televideniye mahsuli. Bugungi – ma’naviy uyg‘onishimiz tongi bolakaylar ongini ham uyg‘otyapti. Zero, bobomizning bobosi kim bo‘lganini bilish bizning millat sifatida kamol topishimizga yordam bersa, o‘zbeknig kimligini aniqlash shajar daraxtining o‘q ildizi qurib qolmasligi kafolatidir.

Binobarin, yuqorida tilga olingan she’rlar ham kelajagimiz yaratuvchisi bo‘lmish yosh avlodni xalqimizning mangu barhayot an’analari ruhida tarbiyalashga, ma’naviy-ruhiy kamolot sari yetaklashga xizmat qilishi bilan qadrli va bugungi istiqlol ma’naviyati manfaatlariga xizmat qilishi bilan zamonaviy bolalar adabiyotimizda o‘z o‘rniga egadir.

Biroq Abdurahmon Akbar she’rlarining asosiy qahramonlaridan bo‘lmish bu bijildoq bolakaylar sizning hamma gapinggizga ishonib, orqangizdan ergashib ketaveradigan ammaning buzog‘i ham emas. Ular biz bilan sizning nasihatimizdan darrov o‘ziga kerakli xulasani chiqarib ola biladi, kerak bo‘lsa, chiroyli “qand qog‘ozga o‘rab”, o‘zimizga qaytarib ham bera oladi. Mana, eshiting:

Kattalarga joy berish

Bolalarga farz derlar,

Bersakmikan ularga

Dalani ham bo'shatib?-

deyiladi bolaning "Paxtazorda tugilgan savoli"da.

"Dalalarda javlon urib, fidokorona" mehnat qilayotgan, shaharlik teng-to'shlaridan bo'yi kamida bir qarich past norasida qishloq bolasining o'y-fikrlari Abdurahmonni ham jiddiy o'ylatadi. Shu bois uning she'rlari orasida ushbu mavzuga bag'ishlanganlari alohida ajralib tursa ham ajab emas. "Insholardan ko'chirmalar" she'rida yosh o'quvchilar insholaridan olingan bir – ikki satr iqtibos bilan o'zgacha qiyofa yaratadi, turlicha fikrlovchi – biri sizni bizning yolg'on madhiyalarimizni to'tiday yodlab olib, takrorlovchi, ikkinchisi hayotga tiyrak nigoh bilan boquvchi – bolakaylar timsollariga chizgilar chizadi:

Darhaqiqat, paxta momiq, paxta zar, oq oltin va hokazo ta'riflar qanchalik chiroyli bo'lmasin, aslida paxtaning mohiyatini to'la aks ettirmaydi. Zero, o'sha biz ta'riflayotgan oppoq momiqday paxta ota-onalarimizning mashaqqatli og'ir mehnati, peshona teri evaziga yaraladi, o'zi oppoq oqarib, pishib yetilgunicha uni yetishtiruvchi dehqonning ham sochini oqartiradi. Binobarin, farzandlarimiz rizq-ro'zimiz bo'lmish paxtaning qadriga yetishlari uchun erta bahordan kech kuzgacha qanchalik mashaqqatli mehnat evaziga yaratilganini ham idrok etishlari lozim. Ana shundagina u don qadar aziz, non qadar tabarruk bo'ladi. Abdurahmon Akbarning "Insholardan ko'chirmalar", "Ketmon haqida she'r" singari ana shunday achchiq haqiqat mevasi ekanligi bilan ham yosh kitobxon qalbidan o'rin topadi. Chunki birinchidan, bu she'rlarda ana shu bolakaylarning fikr – o'ylari, quvonch – tashvishlari relistik badiiy ifodasini topgan bo'lsa, ikkinchidan kasalni davolovchi shifobaxsh dori aslida achchiq bo'lishi ham e'tirof etilgan haqiqatdir.

Pedagogika tavsiyasiga ko‘ra yosh bola uchun mehnat jarayoni ham o‘yinga aylantirilishi kerak. Ana shundagina u bolaning kundalik hayoti tasviriga aylanadi va o‘z jozibasiga ega bo‘ladi. Abdurahmon Akbarning “Yoz mo‘jizasi” she’rida tasvirlangan, o‘yin tasviri bilan omuxtalashib ketgan ana shunday oddiygina mehnat jarayoni – ko‘rpa-yostiqlarni oftobga yoyishdan yosh bolaning tiyrak nigohi mo‘jiza yaratadi:

Tushmasin desang

Ko‘rpaga quya,

Qurmasin desang

O‘rgimchak uya,

Kun tandirdayin

Qizigan mahal

Yoygin ularni

Oftobga, Asal.

Birinchidan, she’rda buvisining nasihatiga amal qilib, oyisiga ko‘rpa-yostiqlarni oftobga yoyishda ko‘maklashgan bolaning mehnat ritmi (harakati) tasviri bor (she’rning ohangi xalq og‘zaki ijodidagi o‘yin qo‘shiqlari ritmini eslatadi), ikkinchidan esa, “semirtirilgan”, “nurga cho‘milgan” ko‘rpa-yostiqlardan oqshom chog‘i quyoshning hidi (!) kelishini faqat tom ma’nodagi SHOIR va YOSH BOLA kashf etishi mumkin. Ana shu hayratomuz “mo‘jiza”dan esa yosh kitobxon zavq-shavq topadigan, bolalarni yaratuvchilik mehnatiga undaydigan haqiqiy she’r olamga kelgan.

Abdurahmon Akbar she’rlarining qahramonlari qanchalik beg‘ubor, sodda, musaffo bo‘lsalar, shunchalik insoniy tuyg‘ularga to‘la, dili pok insonlardir. Ularning beg‘ubor dillarida pinhoni nish urayotgan musaffo insoniy tuyg‘ular xatti-harakatida, gap-so‘zlarida barq urib ko‘rinadi va xuddi shu pokligi,

musaffoligi bilan beixtiyor Sizni ham sehrlab qo'yadi. Yoshi dadajonisidan ancha kichik bo'lsa-da, sochlari oppoq oqarib ketgan rangpar tog'asi va ertaklardagi sarvqomat parilardan ham go'zal Lobaroy kennoyisining bitta ham farzandi yo'qligidan kuyinib ketadigan, ularga o'g'il bo'lib, dardlariga darmon bo'lishga qaror qilgan, ko'ngli rahm-shafqat tuyg'ulari bilan to'la jiyan ("Iltimos"), a'lochi sinfdoshlari Nigora xasratlashib, dunyodan bevaqt ko'z yumganida qalbini armon, g'am-anduh to'ldirgan o'quvchi bola ("Armon haqida she'r") ana shunday qahramonlardandir. "Nodira" she'rida esa qalbida bir beg'ubor tuyg'u chechak ochayotgan bolakayning izhori dili tasviri ko'nglingizga farah bag'ishlaydi.

Abdurahmon Akbar izlanishlari orasida "Shoir dadam haqida she'riy hikoyalar" deb nomlangan turkum ham alohida e'tiborga sazovordir. Besh she'riy hikoyadan tashkil topgan turkum shoir dadaning armonu iztiroblarini, dardu tashvishlarini eshitib qolib, jajji yuragiga sig'dira olmay to'lqinlanib so'zlayotgan bolakay tilidan hikoya qilinadi.

Ma'lumki, bolalarga bag'ishlangan asarlar mazmun jihatidan ham bir necha turkumlarga ajratiladi va bunday toifalashda tasvir uslubi asosiy o'rin tutadi. Zero, bolalarga mo'ljallangan asarlarning bir qismida ijodkorlar katta hayot tajribasiga ega bo'lgan yoshi ulug' kishi sifatida o'z qarashlarini yosh bolaning tasavvur va qarashlari bilan uyg'unlashtirib ifodalasalar, yana bir qismida bevosita bolalar nomidan hikoyalash (go'yoki bolalikka qaytish) uslubi ustivor va hokazo. "Shoir dadam haqida she'riy hikoyalar" turkumida bola tilidan hikoya qilish uslubi yetakchilik qiladi. Fikr dalili sifatida turkumga kirgan ba'zi she'riy hikoyalarni ko'zdan kechiraylik. Jumladan, "Dadamning qalbi" she'riy hikoyasida shunday deyiladi:

"Armon uyasimish dadamning qalbi. Dadamning qalbida kularmish sevinch. Dadamning qalbida ummon bor emish. Bor emish dadamning qalbida ilinj. Yozgan uch-to'rt she'ri dadam qalbining topgan quvonchi-yu ozori emish. Dadamning yuragi dunyo ko'rmagan sonsiz fikrlarning mozori emish..." E'tibor berilsa, bunday hikoyalash uslubi mumtoz adabiyotimizdagi saj' (qofiyali nasr) ni

eslatadi. Ichki qofiyalanishga uyg'un bo'lgan so'z takrorlari ushbu turkumga mansub she'riy hikoyalarning shaklan va mazmunan mukammalligini ta'minlaydi. Bunday tasvir uslubini aslida she'riy shaklga sig'magan fikrlar ummoni deb ham atash mumkin. Olti jumladan tarkib topgan she'riy hikoyada "dadamning qalbi" ifodasi olti marta takrorlanadi va ushbu takrorlar uyg'oq inson qalbining notinch to'lqinlari yanglig' jaranglaydi. "Dadamning fikri", "Ari", "Supacha", "Dadamning hazili" she'riy hikoyalarida ham ana shunday mag'zi to'q fikr saj' yo'sinida hikoya qilingan va ular ham yosh kitobxon qalbida badiiyatga oshnolik hissini uyg'otishga xizmat qiladi.

1.2. Abdurahmon Akbar ijodining mavzu ko'lami

Bugungi o'zbek bolalar adabiyoti namunalariga ko'z tashlar ekanmiz, ular orasida navqiron avlod namoyondalari asarlari alohida o'rin tutishidan ko'z quvonadi. Zero, bu ulush dastavval, soni bilan emas, sifati bilan salmoqlidir. Bolalar adabiyoti kelajagidan umidbaxsh etadigan navqiron avlod vakillari, yaratganga shukrki, madhiyabozlik, shiorbozlik ruhida qalam tebratish majburiyatidan xolidirlar. Ularning asarlari kitobxonni o'ylashga, mustaqil fikrlashga majbur qiladi, qadriyatlar deb kelingan narsalarni qayta baholab, saraganini sarakka, puchagini puchakka ajratishga o'rgatadi. Abdurahmon Akbar she'rlarini o'qir ekansiz, uning ham shu safda sobit ekanligiga guvoh bo'lasiz.

Abdurahmonning 80 - yillar o'zbek adabiyoti she'riyatiga qo'shgan o'ziga xos yangiliklaridan biri yosh shoirning raqamli va sonli she'rlaridir. Fikr dalili uchun "Salom xat" she'rini birgalashib o'qiylik:

--- Tushlarimga bu kecha

Akang kiribdi, Rahmat.

Vaqt topib yozib yubor

Yana 2 enlik xat

Sogʻinibman chamsi,

3 yapti koʻzim ham.

Buvim salom aytdi deb

Qoʻshib qoʻy, xoʻpmi, bolam?

SHeʼr armiyada yigiylik burchini oʻtayotgan nevarasini sogʻinish hissi koʻngliga tinchlik bermayotgan, “koʻzlari ham uchayotgan” buvining topshirigʻi bilan akasiga maktub bitayotgan Rahmatjon degan bolaning shu haqdagi “axborot”i bilan boshlanadi. Bola bola-da, hatto ana shu jiddiy holatga ham uning oʻynab kulgisi keladi, oʻzicha soʻzlar orasidan raqamlar, sonlar qidirib topadi. “Qisqagina” maʼnosidagi “ikki enlik” iborasidagi “ikki ” soʻzini raqam bilan yozib koʻradi. Ana shu gʻayritabiiylikdan bola oʻziga xos zavq tuyadi va boshqa soʻzlardan ham harf va raqamdan tashkil topgan yangicha ifodalar “yarata” boshlaydi:

“Aka, qanday yuribsiz,

Soz ketyaptimi xizmat?

Askarlikka k10ikib

Ketgandirsiz batamom.

Buvim, q10i-qoʻshnilar

Sizga yoʻllashdi salom.”

Q3oq-q3oq ch3moma

Terib qaytsak adirdan.

Koʻchamizni nomlashib

Ketishibdi yangidan.

“Paxtakor” ham ketma-ket

Q3ib turibdi zafar.

1 emas, 3 ta to‘p urdi

Ilhom kechagi safar.

Ha, aytmoqchi, sal bo‘lsa,

Unutay debman, qarang,

Ra’no opamlar bilan

Ishlar bo‘ldi vadavang.

“Shunaqa...akam sizni...”

E, gapniyam d10dirdim.

Xullasi xat yozishga

“Yangam” larni k10dirdim.

Yana ne dey, bizlarda

Yangiliklar 1 jahon.

6 ariqqa bordik.

O‘tgan oy bo‘lib mehmon.

Kirib keldi qishloqqa

Bahor chalib q 10 g‘iroq.

G‘3-g‘3 gulladi o‘rik,

Gulladi mayda 1 oq...

Fursatingiz bo‘lganda

Yozib turing, aka, xat.

3chrashguncha xayr deb

Ukangiz Abdurahmat

Bir qarashda, askarlik burchini o‘tayotgan nevarasini sog‘ingan buvining topshirig‘i bilan ukasining akasiga yozgan odatdagi salom xati. Maktubda qishloq hayotidagi barcha o‘zgarish va yangiliklarni akasiga yetkazish uchun to‘lib-toshib, sevinchi ichiga sig‘mayotgan yosh bola timsoli bor bo‘yi bilan aks etadi. Sinchkov bolaning tiyrak nigohi bahorda tabiatning gul ochib, yangilanishi, adirlardan bolalarning zavq bilan quchoq- quchoq chuchmomalar terib kelishlari bormi, istiqlol sharofati bilan ko‘chalarimiz nomlari ham milliylashib borayotgani (“Zarechnaya” emas – “Birlik”) bormi, “Paxtakor”ning ketma-ket zafar quchayotgani bormi, bo‘lg‘usi”yanga” – Ra’no opasiga akasining maktubini shaxsan topshirgani bormi (Ishlar bo‘ldi vadavang!!!), Oltiariqqa mehmon bo‘lib borishgani bormi, bahor kelib, g‘uj-g‘uj gullagani bormi- xullas, barcha-barchasini maktubida erinmasdan, ba‘zan ko‘pirib-toshib, hovliqib, ba‘zan go‘yoki parishonxotirlik qilganday (Ha, aytmoqchi, sal bo‘lsa, unutay debman, qarang!!!), aslida esa ataylab, akasiga birinchi navbatta yetkazilishi kerak bo‘lgan xushxabarni shunchaki gap orasida aytganday bitadiki, bu ham aslida yosh bola qiyofasiga musavvir shoirning g‘aroyib mo‘yqalami chizayotgan turfa chizgilardir. She’rda yosh bolaningsamimiy nigohi, qiyofasi tabiiy, ishonarli chizilgan. Yosh kitobxon bu asarni shakliy jimjimalarsiz ham maza qilib o‘qishi shubhasiz. Yosh shoir ana shu samimiyatga g‘aroyib “to‘n” kiygiza olgani esa nur ustiga nur, bu shakliy topilma she’rning yanada qiziqarli bo‘lishiga olib kelgan.

Bunday she’riy usul o‘zbek bolalar adabiyoti uchun yangilik. Bu she’rlarning o‘ziga xosligi haqida fikr yuritilganda dastavval, shakliy izlanish

mahsuli sifatida baholash joiz. Aslida bunday usul ham bolalar adabiyotining o'ziga xosliklaridan biri. Zero, yosh kitobxon she'r o'qir ekan, hatto uning g'ayritabiiy shaklidan ham zavq topadi. Harflar raqamlar bilan uyqashib ketgan bunday she'riy usul yosh kitobxon uchun ham hayratingiz, ham qiziqarli topilma. Chunki bunday she'rlarni o'qiy olishi uchun undagi raqamlarni qayta harflarga aylantirish kerak. Binobarin, aynan kichik yoshdagi kitobxon (boshlang'ich sinf o'quvchisi yoki bog'cha tarbiyalanuvchisi) bunday she'rni "mehnat" qilib, boshqotirma (krassvord) yechganday o'qiy olganidan zavqqa to'ladi. Abdurahmon Akbar ijodidagi raqamli she'rlarning mazmun jihatidan mukammalligi esa o'z-o'zidan, shakl va mazmun uyg'unligini ta'minlaydi.

Abdurahmon Akbar yaratgan raqamli she'rlar yumoristik xarakterda bo'lib, ular bolalar tabiatidagi ayrim jihatlarni kulgi vositasida fosh etishga qaratilgan. Lekin bu she'rlarda asosiy maqsad faqat bugina emas.

Shoir she'rda 1,3,5,10,100 raqamlarini qo'llab, o'ziga xos poetik shakl yaratadi. Bu shakl orqali bolalarning zehnini charxlab, topqirligini oshirib, nutqini ravon qilish, talaffuzini yaxshilash barobarida ularning estetik didini shakllantirish kabi bir qancha maqsadlar ham ko'zda tutiladi.

"Tush" she'rida lirik qahramon bir baho olgan kuni kechasi shu son bilan bog'liq vahimali tush ko'radi. Shoir she'rlarda bir so'zini raqam bilan yozib ma'noni kuchaytiradi:

Atrof qorong'i. Soat

O'n 1lar chamasi.

Menga qarab 1 bo'ri

O'qdek kelarmish.

Chorlay desam yordamga

Yo'qmish 1 on jon.

Bo'rining 1 ko'zi cho'g'

1i emish qon.

She'rlar shu tariqa davom etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, shoir bu she'rlarida faqat shaklga diqqat qilib, mazmun mukammalligiga e'tibor qaratmasa, ko'zlangan maqsadga erisholmaydi.

Abdurahmon Akbar mazkur tipdagi she'rlarida shakl va mazmun uyg'unligiga erishishga va shu orqali she'rning poetik ta'sir kuchini oshirishga harakat qiladi.

“Uchqunjonning toychoq'i” she'rida shu holatni ko'rish mumkin. Shoir bu she'rda 3 raqamidan foydalanib, nafaqat she'riy shakl, ayni choqda, toychoq va bolalarning unga bo'lgan munosabatlari talqiniga ham katta e'tibor qaratadi. “Uchqunjonning toychoq'i Shamoldan ham 3qur” bo'lgani shu bois bolalarning hammasi unga minmoqni orzu qilishadi. Shoir bolalarning ushbu orzu-umidlarini ular tabiatiga xos xatti-harakatlari detali orqali quvnoq ohanglarda ifodalaydi.

“Kimdir tutar dov3cha.

Kim suv – hov3lab,

kimdir toychoq yollarin

Qo'yadi silab.

Mingan borki, zavqlanib

Der: - Tulporjon, 3!

Misdanman deb o'kinma,

Osmonlani q3!”

Shoir bolalarning o'yinchoq toychoqqa bo'lgan mehr-muhabbatini, uni minib ko'rishga bo'lgan ishtiyoqlarini ham ifodalamoqda. Bu ifodani shoir talaffuzda harakat ma'nosini ifodalovchi 3 (uch) raqami orqali tasvirlab, she'rda o'ziga xos tasviriylilikni yuzaga keltiradi.

”Qo'ng'izvoyning quvonchi” she'rida esa shoir 10 raqamidan foydalanib, o'quvchilarga she'riy vazifa ham yuklaydi. She'r yakunida:

Hisoblab ko'r-chi endi,

Nechta 10 yozdim, 10ar? -

deb savol qo'yishi bolalarning she'rni yana bir qayta o'qishiga va unda ishtirok etgan raqamlarga yana bir bor diqqatini jalb etishiga olib keladi. Har holda muayyan so'z qismini ifoda etadigan raqamlarning o'sha bo'g'in o'rnida aynan yozilishi – bunday tajribalar ilgarigi o'zbek bolalar she'riyatida kuzatilgan emas.

Abdurahmon Akbar “Ertakchi” she'rida ham raqamlar she'rning g'oyaviy-badiiy motivi bilan uyg'unlashib tasvirlanganini ko'rish mumkin. She'rda lirik qahramonning yulduzli osmonga tikilguncha ukasi uchun ertak to'qishi quyidagicha maroqli tasvirlanadi:

3i o'tkir o'roqqa

O'xshar bu tun oy.

Osmon g'oyat seryulduz –

3qunlarga boy.

3qur shamol haqida

Ukasi 3un,

Ertak to'qir osmonga

Boqqancha 3qun.

(“Ehtiyotkor toshbaqa”, 79).

Adabiyotshunos R.Barakayev fikricha: “Bunday she’riy usul o’zbek bolalar adabiyoti uchun yangilik. Bu she’rlarning o’ziga xosligi haqida fikr yuritilganda dastavval, shakliy izlanish sifatida baholash joiz. Aslida bunday usul ham bolalar adabiyotining o’ziga xosliklaridan biri. Zero, yosh kitobxon she’r o’qir ekan, hatto uning g’ayritabiiy shaklidan ham zavq topadi. Harflar raqamlar bilan uyqashib ketgan bunday she’riy usul yosh kitobxon uchun ham hayratomuz, ham qiziqarli topilma. Chunki bunday she’rlarni o’qiy olish uchun undagi raqamlarni qayta harflarga aylantirish kerak. Binobarin, aynan kichik yoshdagi kitobxon (boshlang’ich sinf o’quvchisi yoki bog’cha tarbiyalanuvchisi) bunday she’rni “mehnat” qilib, boshqotirma (krossvord) yechganday o’qiy olganidan zavqqa to’ladi. Addurahmon Akbar ijodidagi raqamli she’rlarning mazmun jihatdan mukammalligi esa o’z-o’zidan, shakl va mazmun uyg’unligini taminlaydi”¹.

Biroq shuni ham qayd etish zarurki, she’rda originallika intilaman deb hadeb raqamlashtiraverish ham ba’zan kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Jumladan, shoirning “Oltinoy”, “Mingoyoqning xo’tikka degani”, “Kutilayotgan yangilik” kabi she’rlarida raqamli so’zlarga moslashtiraman deb

¹ Баракаев Р. Жонажоним шеърият Тошкент . Чўлпон. 1997. 37-бет

uning poetik mazmuniga putur yetkazish hollari ham uchrab turadi. Bunda she'r shakliga mazmun qurbon qilinadi. She'rda shoirning ijodiy niyati noaniq bo'lib qoladi. Masalan "Oltinoy" she'rida Sobirjonning haybatli kuchugidan hammaning qo'rqishi-yu, Oltinoyning hech ham qo'rqmasligi bayon etiladi.

She'rda boshqalarning nima uchun kuchukdan qo'rqishlarining sababi ochilmaganidek, Oltinoy qo'rqmasligining mohiyati ham ochilmay qolgan. Eng muhimi, she'rda poetik mazmun o'zining badiiy mukammal ifodasini topmagan. Shoir she'rda qanday bo'lmasin raqamli so'zlarni qo'llashga urinib, ma'no saktaliklariga yo'l qo'yadi:

Uni k3uk deyish ham

Xatodir 5ak.

Asli u 4ko'z degan

Ko'ppakdir, ko'ppak

Vaholanki, shoir she'rni "Soljonning k3ugi" degan misralar bilan boshlagan edi. Yuqoridagi keltirilgan misrada 3,5,4 raqamlarini qo'llash uchungina uni To'rtko'z ko'ppakda aylantirish she'r mazmunining g'alizligiga olib kelmoqda. She'rda ifodalangan "8stepkilik atlas kiygan kelinchaklar", "7 yot begonalar", "10g-so'lga 100 bor qarar" kabi misralardagi raqamli so'zlar ham shunday sun'iylik kasb etadi.

She'rlar shu tariqa davom etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, shoir bu she'rlarida faqat shaklga diqqat qilib, mazmun mukammalligiga e'tibor qaratmasa, ko'zlangan maqsadga erisholmaydi.

Abdurahmon Akbar mazkur tipdagi she'rlarida shakl va mazmun uyg'unligiga erishishga va shu orqali she'rning poetik ta'sir kuchini oshirishga harakat qiladi.


Biroq shuni ham qayd etish zarurki, she’rda originallika intilaman deb hadeb raqamlashtiraverish ham ba’zan kutilgan natijani bermasligi mumkin.

80 – 90-yillar she’riyatida shakliy-uslubiy izlanishlar o’zining ijobiy samarasini berdi; bunday natijalar she’riy asarga kompozitsion-struktural yondashuv sari yo’l ochadi.


80-yillar bolalar adabiyotimizning she’riyatidagi shakliy izlanishlar haqida so‘z ketar ekan, iste’dodli yosh shoir Abdurahmon Akbar she’rlari e’tiborni o‘ziga tortadi. Uning “Uyquchining tushlari” (“Cho‘lpon”, 2011) to‘plamiga kirgan “Rasmdan she’riy saboqlar” turkum she’rlariga ko‘z tashlaylik:

1-saboq

Chiz mana bunday uchburchak:




Chiz yana bunday uchburchak:



Ostiga tort uzun chiziq:




Ustiga tort uzun chiziq:



Chizgan rasming, Norqo‘zi,

Bo‘lar xatjildning o‘zi !



Yosh shoir shakliy o‘xshashlik asosida yosh kitobxon ko‘z o‘ngida o‘ziga xos manzara yaratishga erishgan. Zero, xatjildning o‘yin asosida chiziqlar tortib yasalishi o‘quvchi ko‘z o‘ngida paydo bo‘ladi. Ijodkor ana shu o‘yin chiziqlardan o‘quvchi ko‘z o‘ngida xat soluvchi Xatjild (konvert) rasmini yaratadi.

2- saboq:

Daftaringni qilmay kir,

Shoshilmasdan yozgin 1

Yo‘q, bo‘yi kalta buning

Qaddi g‘oz bo‘lsin uning.

1

Bu boshqa gap, juda soz,

Xafsala qilib biroz,

Chapdan yana shoshmasdan

Ilmoq chizib chiq pastdan




Chizganim nimaykin deb

Savolga tutma meni.

Ilmoqlarning yoniga

“Ilib” chiq, sherigini



Barakalla, qoyil der

Rasmingni ko‘rgan barcha.

Ana shunday chizilar

“Bir” dan chiroyli archa!



3-saboq:

“Uzum” she’rida toshlarni yonma-yon qo’yish orqali bir bosh uzum yasalgan.

Bitta tosh



Ikkita tosh



Uchta tosh



O‘n bir tosh




Shuncha toshni chizdim deb

Maqtanaverma, Yo‘ldosh!

Yaxshilab boq, toshlarmas,

Chizganing uzum – bir bosh!



Ana shunday shakliy o'xshashlik o'yin asosida yaratilgan "Uzum" yosh kitobxon ko'z o'ngida darrov yorqin namoyon bo'lishidan tashqari, xotirasida ham bir umrga mixlanib qoladi. "Sport maydonida" she'rida shu usulda "oyog'ini kerib turgan turnik"ning, "Guvoh" she'rida "oppoq yuzida qat-qat chang"i bor Oynaning, "Topishmoq" she'rida "Oq, oppoq qalpoq"ning, "Chivinga talangan bola" she'rida "Og'zi ochiq bola"ning ochiq og'zining suvratlari harflar vositasida mahorat bilan chizilganki, bu shakliy vositani Abdurahmon Akbarning shakliy va mazmuniy uyg'unlikni o'zida jamlagan maqtashga arzigulik izlanishi sifatida e'tirof etish joiz. Bular singari shaklan g'aroyib, mazmunan izchil, ma'nodor she'rlar kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallangan she'riyatimiz izlanish-intilishda, kamolot sari ko'tarilishda ekanidan dalolat beradi, kelajagidan umidbaxsh qiladi.

II. BOB. ABDURAHMON AKBARNING BADIY MAHORATI

2.1. Shoirning lirik qahramon yaratish uslubi

So'nggi davr o'zbek bolalar she'riyatidagi turli tuman poetik izlanishlar o'z samarasini bera boshladi. Bu davrda, ayniqsa, hajviy xarakterdagi eksperiment she'rlar ko'paydi. Shoirlar nafaqat harf va tinish belgilar, balki matematik amallar, husnixat, darslikda mavjud bo'lgan va dars jarayonida faol qo'llanadigan so'z rasmlardan, raqam va har xil shakllardan ham samarali foydalanib she'rlar yoza boshladilar. Bu she'rlar o'quvchilarni topqirlikka, bilimdonlikka undaydi, zehnini oshirib, tasavvur olamini kengaytiradi, "yaxshi o'qi, chiroyli yoz", degan quruq pand-nasihatdan ko'ra ko'proq ta'sir ko'rsatadi.

Shu jihatdan T.Adashboyevning "To'rt amaldan – bir amal", "O'n ikki varaq daftar", H.Imonberdiyevning "2 sentabr", "Qiyin misol", "G'alati Omon", Anvar Obidjonning "Kulchalar", "Siz eshitmagan qo'shiqlar" turkumiga kiruvchi she'rlari, Q.O'tayevning "Fil, Karkidon, Begemotlar", "Ho'kiz", "Xo'roz", "Echki bilan suhbat", Dilshod Rajabning "Sport maydonida", "Minnatdorlik, "Guvoh", "Topishmoq she'r", "Futbol" kabi ko'plab "shakl" she'rlari, shuningdek, Abdurahmon Akbarning raqamli she'rlari xarakterlidir.

Abdurahmon Akbar she'rlarida hajv ma'rifiy mazmunni o'ziga xos badiiy lavhalarda aks ettirishga xizmat qiladi. Jumladan, shoir "Muharramning mashguloti" she'rida bolalarning taqlidchilik xususiyatlaridan mohirlik bilan foydalanadi. Odatda, bolalar har doim kattalarga taqlid qilib ulg'ayishadi. Bu xususiyat o'z vaqtida G'afur G'ulomning "Uylanishni o'rganamiz" she'rida o'z ifodasini topgan edi. Ma'lumki, bolalar eng ko'p taqlid qiladigan kishilar doimiy muloqotda bo'ladigan ota-ona va o'qituvchilardir. Binobarin G'afur G'ulom she'rida bolalar ota-onalarga taqlid qilishsa, Abdurahmon Akbar she'rida muallimlarga taqlid qiladi.

She’rda Muharram qo’g’irchoqlarini devorga suyab qo’yib, o’zi o’qituvchi bo’lib dars o’tadi. Ularga daftar tarqatib yozma ish oladi. Shoir Muharramning o’qituvchiga taqlidini xarakterli nutqiy detal orqali tasvirlay olgan:

O’qir dona-donalab:

“Har do-im bo’lsin onam,

Har do-im bo’l-sin qu-yosh,

Har do-im bo’-lay men ham

Shoir she’rda shu tariqa Muharramning bo’g’inlab, donalab o’qishi orqali dars epizodi manzarasini poetiklashtiradi. Biroq bu hali she’r degani emas. Shoirning mahorati she’r yakunida Muharramning “faoliyati”ga ustalik bilan hajviy ruh bag’ishlay olishi va shu bilan asarning poetik mazmunini kuchaytira olishida ko’rinadi. “Yozma ish” olib bo’lgan Muharram ularni yig’ishtirib olib, bir chekkadan baholaydi:

Quloq solmas va kirmas

Tanish-bilish so’ziga.

Ko’plar oldi “ikki”, “uch”

“Besh”ni qo’ydi o’ziga

Ko’plarning “ikki”, “uch” olishi-yu, Muharramning o’ziga “besh” qo’yishi bolalik olamining o’ziga xos yumoristik talqinidir. Ayni shu talqin tufayli shoir bola ruhiyatining to’liq tasviriga erisha olgan. She’rning ma’rifiy-estetik qimmati ham ana shunda.

“O’n ikki varaq daftar” she’rida esa endi husnixatni mashq qilayotgan kichkintoylarning xarakter xususiyatlari hajviy kulgi asosida tasvirlanadi. Odatda bu yoshdagi bolalar agar yozuvi chiroyli chiqmasa yoki varaqqa siyoh tomib kirlansa, o’sha varaqni yirtib tashlab yangidan boshlashadi. Bu bolalikka xos odat. Shoir bolalarning ushbu odatlaridan mohirlik bilan foydalanib “Lola, Osh, Ol” kabi alifbe darsligida mavjud bo’lgan so’zlarni yozish jarayonining badiiy manzarasini yaratadi. She’rda bolalarning ifloslangan varaqlarni yirtish odatlari quyidagicha tasvirlanadi:

“Lo-la” oshni olmasdan

“A” qulog’in qayirdi.

“O” harfi tushgach, qasddan

Darhol yirtdim, ayirdim.

Nosir nay partadoshim

Barmoq bosdi, kir qildi.

- Afsus, - dedi Abduhoshim

Yana uch bet yirtildi.

O’n ikki varaq daftar

Xolis xizmat etmadi.

“Lo-la, osh, o-l” so’zini

Yozish uchun yetmadi.

“Hali yoshda” she’rida Mukambarning darsda doskaga chiqib misolni yecha olmasligi, shundan keyin o’qituvchi Sodiq ukasining qancha ukang bor, degan so’rog’iga oltita, deb javob berishi va undan keyingi savol-javoblar orqali samimiy

kulgili vaziyat vujudga keladiu. Binobarin, Mukambarning o'zini tutishi, soddadilligi o'quvchida beg'araz kulgi qo'zgaydi:

Lekin oddiy misolni

Yecholmadi Mukambar.

Sodiq aka so'rab qoldi:

- Ayt-chi, qancha ukang bor?

- Oltita.

- Ular birdan konfet yesa,

Bo'lar nechta?

- Beshta.

-Hech-da!

Shoshilmasdan o'yla boshda.

- Bitta ukam konfet emas,

hali yosh-da...

She’rda bolalarning kundalik hayotiga xos bo’lgan dars jarayonining o’qituvchi – o’quvchi savol-javoblari asosiga qurilishi, qalamga olingan holatning tanishligi, bir qarashda, kichik kitobxonning diqqatini o’ziga tortmaydigandek taassurot qoldiradi. Ammo kitobxon nazarida o’qituvchi savollariga Mukambar javoblari sehrli tayoqcha vazifasini bajaradi. Zero, she’rda mantiqsizlik (aslida uning javoblari mantiqiy asosli) kulgi qo’zg’atadi, chunki mantiqan olib qaraganda, konfetlar soni Mukambarning ukalari soniga teng bo’lishi kerak edi. Masala yechimidagi ushbu ziddiyatli holat o’quvchi qalbida kulgiga aylanadi. Kitobxon Mukambarning misolni yecha olmaganidan emas, balki bitta ukasining konfet yeya olmaydigan darajada kichkina ekani bois konfetlar sonini “beshta” deb javob berayotganidan zavqlanib kuladi. She’rning badiiy-estetik qimmatini ham ana shunda. “Абдурахмон Акбарning yengil yumorga boy, o’ynoqi she’rlari qahramoni, - jonajon Vatanni ulug’lovchi, ziyrak, quvnoq qishloq bolasi. Uning xislatlari tantilik, soddalik she’rdan she’rga ko’chib yuradi. Lekin biri ikkinchisini takrorlamaydi. Aksincha, xarakterining yangi qirralari bo’rtib ko’rindi. Shu tariqa u haqda o’quvchida ma’lum bir fikr uyg’otiladi. Umuman tasvirda samimiylilik va tabiiylikka intilish Абдурахмон Акбар she’rlariga joziba bagishlaydi”.

Yuqorida ta’kidlanganidek, bolalarning ma’rifiy-estetik didlarini kamol toptirish bo’yicha so’nggi yillar bolalar she’riyatida jiddiy ijodiy izlanishlar olib borilmoqda. Abdurahmon Akbar ijodiga mansub turli shakldosh, raqamli, jumboqli she’r va ertaklar shular jumlasidandir. Ular, bir tomondan, yosh kitobxonning aqlini peshlashga, fikrlash doirasining o’sishiga yordam qilsa, ikkinchi tomondan, go’zallik va nafosat bilan bog’liq ma’naviy-axloqiy tushunchalarning shakllanishiga hissa qo’shadilar.

Bolalarni ma’rifatli qilishda, estetik didlarni tarbiyalashda topishmoq she’rlarning ham ahamiyati katta. Zero, topishmoqlar xalq og’zaki ijodining eng qadimiy janrlaridan biri sifatida azal-azaldan bolalarning ham ma’naviy olamini boyitishda xizmat qilib keladi. Chunki, “topishmoqlarda kishilarni qurshab turgan olam doimo rivojida harakatida butun rang-barangligi bilan namoyon bo’ladi.

Bolalar topishmoqlarni topishda qatnashar ekan, o'zini qurshab turgan olamni kuzatishlari, tabiat hodisalarni bilib olishga, ularga bo'lgan o'z munosabatini bildirishga o'rganadilar". Topishmoq-she'r yozish an'anasi so'nggi davr bolalar she'riyatida ham izchil davom ettirilmoqda. Shu jihatdan Abdurahmon Akbar yaratgan topishmoq she'rlar xarakterlidir.

Shoir alfavity tartibida har bir harfga bag'ishlab topishmoq she'r yaratar ekan, unda tasvirlanayotgan predmet yoki narsa-hodisalarni bolalar turmush tarzida faol qo'llashiga, ularning yoshi, saviyasiga mosligiga qarab tanlaydi. Ayni choqda, ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyatga ham katta e'tibor qaratadi. Masalan, "Ye" harfiga bag'ishlangan topishmoq shunday ifodalanadi:

Sakkizjondan kichikman,

Oltidan katta.

Kunlar menga yetganda

Tugaydi hafta

Ko'rinib turibdiki, topishmoqda "yetti" raqamining obrazlashgan suvrati jonli tarzda ochilmoqda.

"V" harfiga bag'ishlangan topishmoqda esa varrakning eng xarakterli xususiyatlari quyidagicha tasvirlanadi:

Parraksiz ham osmonda

Parvoz etaman.

Tortmay tursang ipimdan

Oyga yetaman

Bu tipdagi she'rlar bolalar ruhiga nihoyatda yaqinligi bilan ajralib turadi. Shoir har bir harf ishtirok etgan so'zning jumboqlai jihatlarini ochishda unga xos xarakterli xususiyatlar tasvirini chizish bilan bir qatorda, uning quvnoq va samimiy, sodda, ravon, tabiiy bo'lishiga ham katta e'tibor qaratadi. Bu hol bolalarda jumboq she'rlarni o'qishga ishtiyoqni oshiradi, ma'rifiy-estetik saboq bo'ladi. "Topishmoqli alifbe" she'rining "X" harfiga bag'ishlangan yakunlovchi she'rida bu hol, ayniqsa, yaqqol ko'zga tashlanadi:

O'zligini tanittirar,
So'zlaringni tanittirar,
Hayrat, xayol eshiklarin
Ochar kelgach fursati.
Hozir esa jumboq bo'lib
Bo'yin ko'rsatdi xolos,
O'ttiz uchta tovushning
O'ttiz uchta surati

Shu tipdagi she'rlarning so'nggi davr adabiyotida ko'plab yaratila boshlashi yosh ijodkorlarning bolalar sh'eriyatini har tomonlama boyitish uchun astoydil harakat qilganidan dalolat beradi.

Bolalik olami g'aroyib va g'oyatda o'ziga xos. Bolalar tabiatini kattalarga o'xshab, jonli, jonsiz deya ajratishmaydi, hayoliy va hayotiy narsa-hodisalar o'rtasiga ham chegara qo'yishmaydi. Ular uchun tabiat va inson bir butun, yaxlit. Abdurahmon Akbar bola qalbi, idrokining ana shu xususiyatlarini yaxshi ilg'aydi va yosh kitobxonga hayotiy-xayoliy voqealarni uyg'unlikda taqdim etadi.

Masalan, bir she'rda chigirtkalar sokin tunda qo'shig'imizni butun qishloq zavq bilan tinglayotir ("Chirildoqlar qo'shig'i"), deb ishonishadi. Kichkintoy Yomg'irvoy esa, onasi Bulutning gaplariga quloq osib, ko'klam kelganda "zaminga shoshiladi" ("So'zlovchi yomg'ir"), "ko'ngli tusab qolsa" ko'kdan tushadi-yu, "gullarning qulog'iga she'r o'qiydi" ("Yomg'ir haqida she'r"), Mitti chumoli onasi havotiy olayotganini bila turib, yo'l chetida "tuproq-gardga" belanib yotgan ushoq-donni tashlab ketolmaydi. "Uni tishlab, ortmoqlab", uyiga tashiydi ("Ziyrak chumoli haqida ertak").

Qizig'i shundaki, shoirning o'zi kabi kichik kitobxon ham bunga to'la ishonadi. Uning uchu tabiat hodisalari, jonzotlar, narsa-buyumlar bilan insonlar o'rtasida ayirma yo'q. Shuning uchun ham o'zi kashf qilgan har bir yangilikdan hayratga tushadi. Lirik qahramonning tasavvur tushunchasibilan real voqelik o'rtasidagi nomutanosiblik, nomuvofiqlikdan kulgi yaratadi.

Shoir hayotiy voqea va hayoliy tasavvurlardan ta'sirchan manzara yarata oladi. Bu manzaralar yosh kitobxonning xayolot olamini boyitadi, kengaytiradi.

Abdurahmon Akbar yaratgan rasm she'rlar ham shu izlanishlar samarasi o'laroq maydonga kelgan. Shoir narsa-predmetlarning poetik obrazini yaratar ekan, so'zlar vositasida ularning suvratini chizadi. "Tanbeh", "Sport maydonida", "Minnatdorlik", "Topishmoq she'r", "Chivinga talangan", "Futbol" kabi she'rlarida shu usuldan foydalanib yumoristik xarakterdagi o'ziga xos original obrazlar yaratgan.

Predmetning so'zlar vositasida chizilgan suvrati orqali yumoristik ruh hosil qilishi shoirning mahoratidan darak beradi.

"Sport maydonida" she'rida bunday kontrast tasvirni ko'rmaymiz. Aksincha turnikning ta'rifu tavsiflarga boy suvrati chiziladi:

Keling, ko'rmoq bo'lsangiz

Uning kelbat-siyog'in.

Ana u polvon –

T u r n i k

u e

r r

a i

r b

Oyog'in

Shu tariqa shoir she'rdagi turnikning ta'rif-tavsifi va shakliy tasvirini berishini badiiy topilma deyish mumkin.

Shoir bolalarning turnikka tortilish holatlarini: "Qo'lingiz chozsangiz, dast uzib oladi yerdan", deb jonli tasvirlaydi.

Lablaridagi murabbo yuqini yuvmay uxlab chivinlarga talanib yotgan bolani shoir shunday rasm-she'r bilan fosh qiladi.

Uyg'on, tingla gapimni,

Ko'zing ochib bola-ey,

Talar, hatto chivinlar

g' z

o i bolani.

chiq

”Topishmoq she’r”da esa qorli cho’qqi manzarasi oppoq qalpoqqa o’xshatilib jumboq hosil qilinadi.

Bu toqqa yaxshilab boq,

Nega uning boshi oq?

Diqqat qilsang topasan,

Kiygan u

O Q

p a

p l

o p

q o

q

Abdurahmon Akbarning mazkur tipdagi she’rlari haqida fikr yuritar ekan, R.Barakayev, uni bolalar she’riyatidagi shakliy o’xshatishlar asosida manzara yaratish san’ati tarzida baholaydi. Ijodkorning poetik mahorati sifatida shakliy o’xshatishga mos mazmun bilan boyitilganida deb biladi.

Albatta, olimning ushbu qarashlarini qo’llab-quvvatlagan holda, mazkur she’rlar mohiyatiga ko’ra o’zgacha ekanini shoir yaratgan panshaxa, turnik, og’zi ochiq bola manzaralari original topilgan obrazlar ekanini ta’kidlash lozim.

Yuqorida ko’rib o’tilgan she’rlarning tarbiyaviy ahamiyati, shubhasiz, shu jihatdan ham juda kattadir. Chunki shoir shunchaki she’riy shakl yaratmaydi, balki shu shaklga mos ma’no-mazmunni ham she’r qa’riga joylay olgan.

Abdurahmon Akbar izlanuvchan shoir. U ayrim maqol va harflarning qatiga bolalarbop she'r joylay olgan. Eng muhimi, unga yumoristik ruh qo'shish orqali jozibali qilib tasvirlashga erishgan.

Xalqimiz orasida "Tuya hammomni orzu qilibdi", "Chumchuq semirib botmon bo'lmas", "Bu boshmi - oshqovoq", "It-mushuk" kabi maqol va iboralar mavjud. Shoir ularning mazmunini poetiklashtirib, tuya, chumchuq, oshqovoq, it, mushuklarning yumoristik obrazini yaratadi. Ulardan bolalarning beg'ubor dunyosiga mos ma'rifiy-estetik xulosa chiqaradi.

"Tuyaning shikoyati" she'rida cho'l-sahrolarda chang-g'uborlarga ko'milib, iloji bo'lsa, har kuni cho'milishni orzu qilgan tuyaning yumoristik obrazi yaratiladi. Shoir Tuya tilidan:

Qanday soz toza yurmoq,

Tozalik – sog'lik demak.

Shunday desam, ba'zilar

Kulishar qilib ermak.

Nima bo'пти, yomonmi –

Orzu qilsam hammomni?

deyish orqali yuqorida qayd etilgan xalq maqolini she'rning mazmuniga joylaydi. She'r o'qilgan maqol yodga tushadi.

"Chumchuqning shikoyati"da chumchuq tovuqlarga sepilgan donni qizg'anib uni quvayotgan Xo'rozdan yozg'irib:

Kichkina qornim bor,

Bo'lmasa buncha baxil?!

Yegan bilan semirib –

Botmon bo'lmayman axir

desa, Oshqovoq o'zini hadeb Norbo'taning boshiga o'xshataverishlaridan xafa bo'ladi. Doimo inoq, ahil yashaydigan Olapar bilan Baroq ham bir-biri bilan urishib yuradigan aka-singil Nabi bilan Guloyimni it-mushuk deb o'zlariga o'xshatishlaridan hafa bo'lishadi.

Shoirning bu tipdagi she'rlari bolalarda quvnoq kulgi hosil qilishi barobarida ularning maqol va iboralarning mazmun-mohiyatini anglashga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Shoirning "Toshning boshi "T" to'g'risida ertak" asari ma'rifiy xarakterda bo'lib, unda Tosh va Tulki voqeasi orqali bolalar uchun ibratli xulosalar chiqaradi. Ertakda Tulkining yovuzligi, duch kelgan jonzotni yeb bitirishi hikoya qilinadi. Shunday kunlarning birida unga Tosh duch keladi va o'zining tadbirkorligi tufayli omon qoladi. Shoir Toshning tadbirkorligini tasvirlar ekan, mohirlik bilan so'z qo'llashda tovush va harflarning o'rni haqida badiiy saboq beradi. Tulkiga duch kelgan "T" o'zini yo'qotmay uzr so'rab, o'zi Toshga bosh ekanini, agar Tosh bo'lmasa, o'zi ham ado bo'lishini aytar ekan, ayni choqda Tulkiga yemish bo'lish o'zi uchun sharafliligini, faqat bir andishasi borligini aytib, shunday deydi:

Mensiz putur yetgusi

Sizning ulug' nomga ham.

Ya'niki, u holda Siz

Ulki bo'lib qolasiz,
Butun o'rmonistonda
Kulki bo'lib qolasiz

”T” harfi orqali she’rda Tulkining xalq og’zaki ijodida shakllangan yumoristik obrazini yaratadi. Ayni choqda, ushbu harf bilan bog’liq katta ma’rifiy, ijtimoiy xulosalar kelib chiqadi.

Mazkur iddaoni eshitgan Tulki o’ylanib turib Toshni yemay ketadi. Tosh boshi, ya’ni ”T”ning tadbirkorligi, aqlliligi tufayli omon qoladi. Shoir ushbu voqealarni chiroyli so’z o’yinlari bilan ifodalab, topqirlik bilan topilgan ma’rifiy xulosa chiqaradi.

*Xulosa: Boshi borlar,
Zavol bilmaydi Toshday.
Tulkilarga yem bo’lar
Faqatgina beboshlar.*

Mazkur misralardagi ”boshi borlar”, ”bilmaydi”, ”beboshlar”, ”bo’lar” so’zlarida takror kelayotgan ”b” tovushi alliteratsiya hosil qilib, she’r ohangdorligini ta’minlaydi.

O’zbek bolalar adabiyotining bir qator iste’dodli vakillari xususida mulohazalar bildirgan professor A.Rasulov bu ijodkorlarning qahramonlari doirasi kengayganiga, ularning asarlarida ”inson, hayvonot, dov-daraxt, tog’- Tosh” yaxlit bir butunlikda aks ettirilganiga e’tiborni qaratadi. Ayni choqda: ”Bolalar adabiyotida janrlar, shakllar rang-barangligi ortdi”, deb yozadi. Yuqorida tahlil

qilingan she'riy asarlarda adabiyotshunos olim aytgan ana shu jihatlar ko'zga yaqqol tashlandi.

Xulosa qilib aytganda, satirik va yumoristik she'rlarning barkamol inson tarbiyasida ahamiyati nihoyatda kattadir. Ular bolalarning ilm-ma'rifatga bo'lgan rag'batlarini oshiradi, o'zlari va atrofdagilarga, ota-ona va o'qituvchilariga bo'lgan munosabatlarini qayta ko'rib chiqishga undaydi.

Bu tipdagi she'rlar bolalarning adabiy-estetik didini shakllantirib, xunukning suratini chizish orqali go'zallikni his qilish ruhida tarbiyalaydi.

So'nggi davrda yaratilayotgan ko'plab turkum she'rlar bolalarni tabiat va turli tuman narsa-hodisalar, jonzotlar olamiga olib kiradi, ularda mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otadi. She'r matnida qo'llanilayotgan arifmetik raqamlar, maqollar, o'z vositasida yasalayotgan shakllar, topishmoq she'rlar kichkintoylarning bilim saviyasini, topqirligini oshirish bilan birga, so'zdagi ma'naviy go'zallikni his qilishda o'rgatadi.

2.2. Shoir she'rlari badiiyati

Bolalar she'riyatidagi topishmoqli she'rlar haqida so'z ketar ekan, bu borada ham iste'dodli shoir Abdurahmon Akbarning o'ziga xos o'rni bo'lakcha. Uning "Uyquchining tushlari". ("Sharq nashriyoti" Toshkent 2006) to'plamiga kirgan "Rasmdan she'riy saboqlar", "Xoh ishonang, xoh ishonmang", "Ismli she'rlar", "Topishmoqlar", "Adabiy topishmoqlar" kabi turkum she'rlarida o'ziga xos topqirlikning izlanishlari ko'zga tashlanadi. Javobi "varrak" bo'lgan she'rga ko'z tashlaylik:

Parraksiz ham osmonda

Parvoz etaman.

Tortmasangiz ipimdan,

Oyga yetaman.

Yoki

Yorib oppoq uychasin

“Chip-chip” deb qo‘ydi.

Chuvalchangni cho‘chimay

Cho‘qib yeb qo‘ydi.

Shoir topishmoq she’rlarida yosh kitobxon ko‘z o‘ngida o‘ziga xos manzara yaratishga erishgan. Zero, varrak uchirishga qiziqqan bolakay topishmoqning javobini birdan topa oladi. Yoki oppoq uychasini yorib chuvalchangni yeb qo‘ygan jo‘jani yosh kitobxon darrov topa biladi. Ijodkor ana shu tabiiy holatdan jonli manzara yaratgan. Yosh kitobxon ko‘z oldida bu manzara darrov jonlanadi, uning qiziqishini orttiradi.

“Yulduzoyning daftaridagi she’rlar” turkum she’rlarida topishmoqning boshqacha usulidan foydalanilganligini ko‘ramiz. Shoir yosh o‘quvchini qiziqarli o‘yinga jalb etish uchun she’riy topishmoq oldidan quyidagicha izoh beradi:
“Sizlarga atalgan she’rlarimning bir nechtasini Yulduzoyning daftariga ko‘chirib, yozuv stolim ustida qoldirgan edim. Qizim ularni bilmasdan yirtib qo‘yibdi. Ayrim so‘zlari yo‘qolgan she’rlarni aslini tiklashda balki sizlar Yulduzoyga, qolaversa, menga yordam berarsiz?”

Moshdan bo‘shagan yerni

Tezlikda chopib qo‘ydik.

Tok novdasin qo‘ndoqlab

Pichan-laqo‘ydik.

Ko‘chadagi ni
O‘tinxonaga tashib,
Oshxona devorini
Shuvay boshladik shoshib.
G‘ayratimizni ko‘rib,
-.....! – der o‘qituvchi.
- Kim aytadi sizlarni
Tanbal, yalqov
Muallimning bog‘ida
Qo‘shimcha “saboq” olib,
“A’lochi” bo‘lib qoldik
“Mehnat” dan men va

Ana shunday o‘yin asosida yaratilgan she’r yosh kitobxon ko‘z o‘ngida darrov nuqtalar o‘rnidagi tushib qolgan so‘zlar yorqin namoyon bo‘ladi. Bola birdan fikrlashga, qofiyadash so‘zlarni topishga intiladi. “Sadirjonning kaptari” she’rida Abdurahmon Akbarning shakliy va mazmuniy uyg‘unlikni o‘zida jamlagan maqtashga arzigulik izlanishi sifatida e’tirof etish joiz. Bular singari shaklang‘aroyib, mazmunan izchil, ma’nodor she’rlar kichik yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan she’riyatimiz izlanish-intilishda, kamolot sari ko‘tarilishda ekanidan dalolat beradi, kelajagidan umidbaxsh qiladi.

Shuni ham qayd etish kerakki, aslida mumtoz she’riyatimizda shakliy va ma’naviy san’atlarning yuzlab go‘zal namunalari, rang-barang uslub shakllari qadimul ayyomdan ma’lumu mashhur edi. “Muvashshah” san’atiga asoslangan so‘zlarning dastlabki harflari yoki ma’lum qismlardan kishi nomlarining yasalishi,

“Tarix” san’atiga asoslangan ma’lum harflar yoki so’zlar vositasida ma’lum bir voqeaning ro’y bergan vaqti aks ettirilishi va hokazo san’atlar fikrimiz dalilidir. Ustoz shoir Abdulla Oripovning: “Harf o‘yin aylay desam, o‘zga erur imlo bu kun” – satrlari esa mumtoz adabiyotimizdagi turli san’atlarning yo‘qolib ketayotganidan afsuslanish ramzi sifatida yangraydi. Binobarin, bugungi o‘zbek bolalar adabiyoti she’riyatida yaratilayotgan yuqoridagilar singari kichik yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan shakliy san’atlarning shakl va turlari doimo behisobligidan, tinimsiz izlanish, hamma narsadan yangilik axtaradigan yosh bolaning o‘zi yanglig‘ olamga yangidan tanish, kashf qilish nigohi bilan qarash ular uchun yaratilajak she’riy asarlarda ham yangidan-yangi topilmalar yaratish imkoniyati hamma vaqt mavjudligidan dalolat beradi.

Yuqorida qayd etilganiday, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning faoliyatlarida o‘yin alohida o‘rin tutadi. Yosh bolalarning bilimlarni egallashi o‘yin jarayonida tabiiy va samarali kechadi, mehnat ko‘nikmalari ham o‘yin elementlari singdirilganda oson o‘zlashtiriladi. Chunki maktabgacha va kichik maktab yoshida o‘yin bola uchun shunchaki ermak emas, balki o‘yin jarayonida bola bilim va ko‘nikmalarni egalladi, o‘yin jarayonida uning kattalar mehnati, o‘zaro munosabatlari va mas’uliyatlari haqidagi ko‘nikmalari shakllanadi, bola shaxsiyatida axloqiy-ma’naviy va irodaviy-psixologik jihatlar kamol topa boradi. Binobarin, Abdurahmon Akbarning raqamli va sonli topishmoq she’rlari shu jihatdan yosh kitobxon uchun she’riyatni o‘yin orqali o‘zlashtirishdir. Ikkinchidan esa, yosh bolalar uchun tez aytishlarni o‘zlashtirish qanchalik qiziqarli bo‘lsa, raqamli she’rlarni o‘zlashtirish ham shu qadar qiziqarli. Demak, Abdurahmon Akbar raqamli she’rlarning axloqiy-ma’rifiy qimmatini shu bilan ham belgilanadi.

Satirada ham, yumorda ham kulgi hayotiy ildizlarga ega. Komik asarlar badiiy asarda kulgi yordami bilan yumoristik xarakterda ifodalanishi yoki ularning xarakteri, mazmun-mohiyatiga qarab satirik tusda berilishi mumkin. Hayotdagi

komiklikning ko'rinishlari, shakllari satira va yumorning xarakterini hamda xillarini belgilaydi.

Satirada ham, yumorda ham kulgi qo'zg'aydigan omil shakl bilan mazmun o'rtasidagi ziddiyat tufayli tug'iladi. Zero "... kulgili narsaning asosida g'oya bilan shakl yoki shakl bilan g'oya o'rtasidagi muvofiqlik, ziddiyat yotadi"¹. Lekin ularning har biri alohida olib qaralganda, o'z holicha kulgi uyg'otmaydi. O'tgan faslda tahlil etilgan she'rlar bu fikrning yorqin dalili, albatta.

So'nggi davr bolalar she'riyatida quvnoq yumor vositasida majoziy obraz yaratishga alohida e'tibor berildi. Shoirning satirik obraz yaratishdagi kabi yumoristik obraz yaratishda ham majozdan, poetik ko'chimlardan unumli foydalanishdi. Biroq ijodkorlar satirik obraz yaratishda, ko'rib o'tilganidek, ko'proq ertak, hikoyat va rivoyatlarida satirik timsol darajasiga ko'tarilgan bo'ri, tulki, kalamush, qarg'a, chumchuq kabi hayvonlar, parranda-yu darrandalar obrazidan foydalanishsa, yumoristik obraz yaratishda turli xil jonivorlardan tashqari dav-daraxtlar, o'simliklar olami, har xil predmet va hodisalarga ham murojaat qilishadi. Ularning majozlashgan yumoristik qiyofasini yaratishda poetik ko'chim, majoziy va ramziy tasvirlarga katta e'tibor qaratishadi.

Ayniqsa, Anvar Obidjon, Dilshod Rajab, Abdurahmon Akbar, Rustam Nazar, U.Shukurov kabi shoirlarning bur boradagi izlanishlari xarakterlidir. Anvar Obidjonning "Juda qiziq voqea" nomli she'riy to'plami boshdan oyoq shu tipdagi yumoristik she'rlardan tashkil topgan. Shoirning o'zi ham kitobning debochasidagi: "muallifdan" qismida "...bolalarning dunyosi, ona tabiat nafasi, turli buyum va jonzotlarning sirli olami haqida iloji boricha quvnoqroq tarzda so'z yuritishga harakat qildim", deya e'tirof etadi. To'plamdagi "Xabar sotuvchi" she'rini o'qigandayoq bu holni yaqqol his etish mumkin. Mazkur she'r xalq og'zaki ijodi, xususan, xalq dostonlaridagi shahar kezib turli-tuman mollarini sotib yuruvchi attorlar qo'shiqlari usulida yozilgan bo'lib, quvnoq yumorga boydir.

Yangi gaplar sotaman,

Eski gaplar ham.

Bolajonlar kepqoling,

Qoldi juda kam.

Surishtirmang narxini,

Shardan ham arzon.

Xo'rozqandga – rost xabar,

Pishloqqa – yolg'on.

Shu tariqa quvnoqlik bilan boshlangan she'rda turli-tuman hayvonlaru parrandalar, jonivorlar haqidagi "eski-yangi gap"lar "arzon baho"ga sotilishi ta'sirchan manzaralarda tasvirlanadi. Bunda "yangi gap"ni kepaksiz unga-yu, eskisini puch yong'og'u sovunga "almashishi"dan tortib, kaptarning tushida burgutni yeb qo'yishigacha, tulkivoyning bitta xo'rozni tutib kelib bo'riga xiringlashi-yu, hazilni uncha xush ko'rmaydigan bo'rining avval xo'rozni, keyin tulkinining o'zini yeyishigacha, uch yil bir sinfda o'qigan eshakning ayiqni "savodsiz" deb haqorat qilishigacha, xullas, ko'plab majoziy obrazlarning xilma-xil yumoristik ruh bila yo'g'rilgan qiyofalarini ko'ramiz.

Shoir qisqa satrlarda har bir majoziy obrazning o'ziga xos xarakterini quvnoq kulgi vositasida yaratishga erisha olgan. Jumladan, Quyon obrazini yaratar ekan, uning xalq orasida qo'rqqoq sifatida shakllangan timsolini folklor ohanglariga mos shaklda quyidagicha tasvirlaydi:

Quyon Yo'lbars terisin

Yopinib yurib.

Xushdan ketdi, ko'zguda

O'z aksini ko'rib

Mazkur she'riy to'plam bir nechta turkumni o'z ichiga olgan. “Dalalardan – bolalarga” deb nomlahnag birinchi turkum o'simliklar olami haqidagi yumoristik she'rlardan tashkil topgan. Turkumda bug'doy, paxta, sabzi, tarvuz, uzum, o'rik, o'rik, sholg'om, anjir, piyoz, qalampir, handalak kabi ko'plab poliz mahsulotlari va meva-chevalar haqidagi she'rlar jamlangan.

Ma'lumki, o'zbek bolalar she'riyati tarixida mazkur shaklda ko'plab she'rlar yaratildi. Jumladan, Quddus Muhammadiyning “Tabiat alifbesi” turkumiga kiruvchi dov-daraxtlar, o'simliklar, meva-chevalar, tabiat hodisalari haqidagi she'rlari buning yorqin misolidir. Shoir bu tipdagi she'rlarida har bir o'simlik yoki meva-cheva, dov-daraxtlarning o'ziga xos xususiyatlari, yangi rangi, ta'mi, tuzilishi, shakli tasviri orqali katta badiiy-estetik va ma'rifiy ma'no chiqaradi.

Atrofimizdagi olam tasviridan bolalar tabiatiga oid ma'no chiqarish, muhimi, poetik mazmunni kichkintoylar qalbiga nihoyatda yaqin bo'lgan xalq ohanglari usulida yaratish Quddus Muhammadiy ijodiy an'alarini muvaffaqiyat bilan davom ettirgan Anvar Obidjon ijodiga ham xosdir.

Anvar Obidjonning poetik mahgorati shundaki, Quddus Muhammadiy yaratib ketgan har bir obrazga qayta qo'l urar ekan, uning yangi, original, quvnoq yumorga boy bo'lgan yangicha qiyofasini qisqa, ixcham, poetik ko'chimga boy majoziy obraz darajasiga ko'tara oladi. Masalan, “Sabzi” she'rida uning poetik obrazi quyidagicha namoyon bo'ladi.

Yupqagina

Po'stim bor,

Dalada ko'p

Do'stim bor.

Maqolda ham

Yoziqman.

O'sha

"Oltin qoziq"man.

Yotsam

Yerga qapishib,

Dumginamdan

Tortishib,

Tashladilar o'raga...

Salom

Palov to'raga!

Shoir sabzi obrazini kitobxonlar tasavvurida jonlantirishga o'ziga xos tasvir usullaridan, qofiya san'atidan unumli foydalanadi. Xalq maqolini eslatish bilan uning ko'rinishini bolalar yodiga tushirsa, "po'stim", "do'stim", "yoziq", "qoziq" kabi qofiyalar orqali badiiy ohangning yakunidagi "Yotsam yerga qapishib, dumginamdan tortishib" kabi misralar yumoristik kulgi hosil qilsa, "Salom Palov to'raga!" misralari uni real hayotga yaqinlashtiradi, bola ruhiyatiga o'ziga xos iliqlik olib kiradi.

"Tarvuz" she'rida: "Rosa qorin qo'ydim men", deya tarvuzning dumaloqligi yumor bilan ifodalansa, "Sholg'om" she'rida rediskani o'zining ukasi, hali yosh bo'lgani uchun shoshib bahordayoq pishar, deb xabar bergan sholg'om: "Men shoshmayman, beg'amman. Shuning uchun Sholg'omman", deya quvnoq qahqaha hosil qiladi.

Shoir har bir she'rida meva-cheva, poliz mahsulotlarining poetik suvratini yaratar ekan, ular portreti, tabiatiga xos bo'lgan tashbehlaridan, obrazli tasvirlardan mohirlik bilan foydalanadi. Chunonchi, "Anjir" she'rida uning gullamay meva tugishini ta'riflar ekan, mevasini "Tillo rangli kulchadir", degan original o'xshatish san'ati orqali anjirning badiiylashgan obrazini kitobxon ko'z o'ngida namoyon qiladi:

G'uddaymayman,

Sipoman.

Ko'p dardlarga

Shifoman

Ushbu misralardagi yumoristik ohang ("G'uddaymayman, Sipoman") anjirning yetakchi xususiyati ("Ko'p dardlarga Shifoman")ni ochishga xizmat qiladi.

Shoir yumoristik ohang va kulgini har bir obrazining o'ziga xos tabiatidan kelib chiqib yaratadi. Masalan, "Qalampir" she'rida qalampirning xarakter xususiyati rangining qizilligi va achchig'ligiga urg'u qaratilishi orqali yumoristik obraz darajasiga ko'tariladi. She'rda o'zining "eski kasali – asabi chatoqroq" ekanini aytgan qalampirning yumoristik portreti quyidagicha chiziladi:

Chiqsa birdan

Achchig'im,

Tutib yurak

Sanchig'im,

Yaproqlarim

Gezarar

Burnim darrov

Qizarar

She'rdagi obrazning boshdan oyoq majozlashishi, uning jahldor insonlar tabiatiga xos xislatlar bilan tasvirlanishi yosh kitobxon tasavvurida, bir tomondan, qalampirning poetiklashgan yumoristik obrazini namoyon qilsa, ikkinchi tomondan, o'zlari hayotda ko'rib-bilib yurgan ba'zi jahldor, asabiy odamlarni ko'z o'ngiga keltiradi. Binobarin, she'rdagi qalampir obrazining shu tariqa poetiklashtirilishi kitobxonning kulgisiga sabab bo'lib, zavqini keltirish bilan birga she'riyatga, badiiy ijodga bo'lgan mehr-muhabbatini ham oshirib, estetik didining shakllanishiga xizmat qiladi.

"Piyoz" she'rida ham shunday xususiyatni ko'rish mumkin. She'rda poetiklashgan piyoz yerga bekinib olsa ham oshpazlar uni topib olib chopishlari, bunday bedodlikdan piyoz yig'lamasa ham, oshpazlarning o'zlari rosa yig'lashlaridan hayronligi kulgili tarzda bayon qilinadi. Mazkur poetiklashgan manzara piyozning achchiqligini bilgan bolalarning quvnoq qahqahasiga sabab bo'ladi, ayni choqda, nafaqat piyozga, balki uni to'g'rayotib ko'z yoshlarini tiya olmayotgan oshpazlarga ham ma'lum munosabat hosil qiladi. Shoir yumoristik obrazlar yaratishda turli xil tashbehlardan mohirlik bilan foydalanadi.

"Anor" she'rida anorning poetik obrazi:

Har donacham

Bir askar.

Bir qal'ada

Ming lashkar.

Yotar ular

Panada –

Oq pardali

Xonada

(”Juda qiziq voqea”, 8)

deb jonlantirilsa, ”Kunga boqar” she’rida:

Kulcha yuzim

Oytovoq.

Oytovoqmas,

Moytovoq.

Moytovoqda

Pistacha,

Rosa

To’qqiz yuztacha

(”Juda qiziq voqea”, 8)

deya tashbeh san’atidan foydalanadi. Bunda shoirning topishmoqmonand poetik topilmalarini kuzatish mumkin.

To’plamdagi boshqa turkumlarda ham shunday mahorat bilan yaratilgan yumoristik she’rlar ko’p uchraydi. Jumladan, ”Ajoyib xona”, ”Kulchalar”, ”Siz eshitmagan qo’shiqlar” kabi turkumlardagi she’rlar shu jihatdan xarakterlidir.

Shoir bu she'riy turkumlarda turli xil hayvonlar, jonivorlar, kiyim-kechak, predmetlarni jonlantirib, ularning majoziy obrazini yaratadi. Shoirning mahorati har bir obrazni uning o'ziga xos xususiyati, belgisi, rangi, ta'mi, tuzilishi yoki boshqa jihatlarini zukkolik bilan topilgan badiiy detallar, savol-javoblar, diologik nutq vositasida yaratishda namoyon bo'ladi. Bu hol bolalarda she'rda qalamga olingan narsa-predmetlar obrazini qiyoslash orqali tez tasavvur qilish imkoniyatini tug'diradi.

Masalan, "Zo'ravonlik" she'rida ochko'z, surbet kanalar yuvosh ola Sigirga quyidagicha do'q urib xat yozishadi:

Shartimiz bor.

Ko'nmasang,

Ko'rsatamiz kuningni.

Biz qoningni so'rgan payt,

O'ynatmay tur dumingni!

(*"Juda qiziq voqea"*, 35)

Ushbu o'ynoqi va quvnoq satrlardan bolalarning surbet kanalar haqidagi tasavvurlari kengayishi barobarida, sigirlarning o'zlariga juda tanish bo'lgan dum o'ynatishlariga doir yangi poetik mazmun bilan tanishadilar. Ya'ni sigir uchun dumini u yon – bu yon urib silkitib turish odati yangicha ma'no, ya'ni majoziy mazmun bilan boyiydi.

"Boshma-bosh" she'rida esa o'zlariga tanish bo'lgan "Shara-bar-a" manzarasini echkinning majoziy obrazi orqali ko'rishlari bolalarda o'zgacha bir zavq hosil qiladi. Ular hayotdago "Shara-bar-a"da e'tibor bermagan yumoristik

holatlar mazkur she'rda nozik idrok etilganidan hayratga tushishadi. Buning asosiy sababi Echkining "Shara-bara"chi sifatida tanlanganligidir. Agar Echkining o'rniga boshqa hayvon obrazi tanlanganda she'r bu darajada muvaffaqiyatli chiqmasligi mumkin edi:

Bo'ynin cho'zib qichqirgancha

"Shara, bara-a!"

Ko'cha kezar Echki

Eshakaravada.

Der:

- Bolalar,

Zor emasman

Choy puliga.

Pufaklarni almashaman

Ko'k suliga

(*"Juda qiziq voqea"*, 35)

Echkining bo'ynini cho'zib "Shara, bar-a!" deb qichqirishi juda topib qo'llangan poetik tasviridir. Bu o'rinda jonlantirish orqali echkining yumoristik obrazi yaratilishi barobarida kitobxonning ko'z o'ngida Echkining bo'ynini cho'zib "ba-a" deb ma'rashi ham keladiki, bu hol tasvirning ma'nodorligini ta'minlashga xizmat qiladi, she'rning badiiy-estetik qimmatini oshiradi. Zero, Anvar Obidjon ijodining o'ziga xos jihatlari o'ta jiddiy vaziyatni kulgili va, ayni choqda, haqqoniy va tagdor qilib tasvirlashida namoyon bo'ladi. Shu boisdan ham "Anvar Obidjonning ijtimoiy xarakterdagi she'rlari ko'pqatlamlilik bilan yaqqol ajralib turadi. Ularni bolalar ham, kattalar ham qiziqib o'qiydilar va ma'naviy ma'nolarni o'z mushohadalari doirasida dilga singdiradilar. Shoir "Sigir qo'shig'i",

”Parvarda”, ”Yirtqich” kabi she’rlarida kichkintoylarning dunyoni anglashga intilish jarayonlari kattalar bilan to’qnashuvi, ota-onalar va bolalarning ba’zan birlarini to’g’ri tushunmasligi bois sodir bo’luvchi turli anglashilmovchilik oqibatida kelib chiqadigan dramatik holatlarni kulgili tarzda ko’rsatadi”.

Dilshod Rajabning bir turkum she’rlarida ham Anvar Obidjon she’riyatiga xos bo’lgan an’ananing, xususan, ayrim obrazlarning davom ettirilganini kuzatish mumkin. Anvar Obidjon o’z she’rlarida Quddus Muhammadiyning poetik an’anasini davom ettirib, uni janr va shakliga ko’ra muayyan darajada yangilay olgan va yumoristik ohang bilan boyigan bo’lsa, Dilshod Rajab ham mazkur an’analarning yangi-yangi qirralarini kashf etadi. Shu jihatdan shoirning ”Hazilkashlar davrasida” she’riy dastasi xarakterlidir.

Anvar Obidjon she’rlarida uch yil bir sinfda o’qigan eshak ayiqni ”savodsiz” deb haqorat qilib kulgi uyg’otsa, Dilshod Rajabning ”Eshak” she’rida kitobxon qahramon xarakterining yangi qirralari bilan tanishiladi.

Qisqasi, bu hayotdan

Ginam yo’q hech, roziman.

Ko’rdim yarim dunyoni

Aytsam sizga rostin man.

O’qimagan bo’lsam-da,

Emasman xor, betayin.

Obro’yim zo’r, hech qayga

Mensiz bormas xo’jayin.

Anvar Obidjon she'rida eshak farosatsiz qilib tasvirlangan bo'lsa, Dilshod Rajab asarida uning farosatsizligi ustiga maqtanchoqligi ham qo'shiladi va shu tariqa yumoristik kulgining ta'siri yanada quyuqlashtiriladi.

”Jasur piyoz” she'rida ham shunday hamohanglikni ko'rish mumkin. Anvar Obidjonning yuqorida tahlil etilgan ”Piyoz” she'rida piyozni to'g'ragan oshpazlar yig'lagan bo'lsalar, Dilshod Rajabda piyozga nisbatan ”zo'ravon”liklar yanada kuchaytirilib, bo'rttirilib tasvirlanadi:

Avval shildilar po'stin,

So'ng kesdilar maydalab.

Achishdi shirin joni

Lekin jim turdi chidab.

O'zlari bermay bardosh,

To'kishdi ko'zlardan yosh

(”Endi zerikmayman”, 48)

E'tibor berilsa, she'rning har bir misrasida piyoz to'g'rash jarayonidagi xatti-harakatlar tasviri (”po'stini shilmoq”, ”maydalab kesmoq”, ”shirin jonining achishi”, azoblovchilarning o'zlari chiday olmay ko'z yosh to'kislari) poetiklashib, qiynoqlarga mardonavor dosh bergan va raqiblarini yig'latgan piyozning badiiy obrazi yaratiladi.

Abdurahmon Akbar – tabiatan yumoristik shoir. U qisqa satrlarda kutilmagan, favqulodda topqirlik bilan narsa-hodisalarning mohiyatni ochadi. Jumladan, ”Xirmon” she'rida ham ”Jasur piyoz” she'ridagi kabi mehnat jarayoni poetiklashtirilib o'ziga xos badiiy manzara yaratiladi. Bunda xirmon hozirlashda

ishlatiladigan Ketmon, O'roq, Xaskash, Panshaxa kabi mehnat qurollari o'z vazifasiga mos ravishda ko'rsatilib, mehnat jarayoni quvnoq, so'z o'yinlariga boy tarzda tasvirlanadi. She'rda tasvirlanishicha, Ketmonboy bug'doyni ekib, parvarish qiladi. Bug'doy pishib yetilgach, O'roqboy uni o'rib oladi. Xaskash o'rilgan bug'doyni to'plab xirmon qiladi. Xuddi shu payt Panshaxa paydo bo'ladi. Shoir kitobxon tasavvurida ushbu manzarani qayta jonlantirib, unga yangicha ma'no yuklaydi:

Xaskash to'pladi barin,

Xo'p ham bo'ldi haydalib.

O'roqda yo'q...Panshaxa

Hozir bo'ldi qaydandir.

Og'rimaganda beli

U och yupun qolg'urning!

Shuncha xirmonni, kelib

Zumda yelga sovurdi.

(”Endi zerikmayman”, 50)

Shoir xalq qo'shiqlarida tasvirlangan bug'doy yanchish jarayonini xalq qo'shiq va maqollari (”Xo'p ham bo'ldi haydalib” – ”Xo'p hayda” qo'shig'iga ishora, ”o'roqda yo'q, mashoqda yo'q, xirmonda hozir”) mazmuniga mos ravishda yangi ma'no bilan boyitadi. Shoir mahorati tufayli ketmon, o'roq, xaskashlar mehnatkash, panshaxa esa tayyorga ayyor kishilar obrazi tarzida ko'rsatilib, she'rning badiiy-estetik qimmatini oshiradi.

Abdurahmon Akbarning ”Poyezdning bolasi”, ”Ko'rsichqonning malomati”, ”To'yda”, ”Childirma”, ”Ariqcha”, ”Ko'zgu”, ”Telefonning radioga

luqmasi”, ”Panshaxaning e’tirozi” she’rlari, shuningdek, ”Uchqunbekning savollari”, ”Fikratjonning fikricha”, ”Shikoyat daftari” turkumlariga kiruvchi ko’plab hajviy she’rlari ham shoirning poetik topqirligidan dalolat beradi. Shoir asarlaridagi yozgi ta’tilda shaharga tomoshaga chiqib tramvayga chiqqan va xolasiga: ”Maza qilib poyezdning bolasiga mindim”, deb maqtangan Sayfi ham, o’zini ko’rsichqon deb ataganlaridan ranjib: ”Men insondan avvalroq kashf etganman metroni”, deya da’vo qilayotgan Ko’rsichqon ham, ”Besh panja ham barobar”, deb e’tiroz bildirayotgan Panshaxa ham samimiy yumor bilan yo’g’rilgan quvnoq qahramonlardir.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, Abdurahmon Akbar she’rlarida shunchaki so’z o’yinidan kulgi hosil qilinmaydi, balki har bir she’r favqulodda teran poetik mazmunga boy bo’ladi. Masalan, ”To’yda” she’rida:

Qo’sh kaltakka chiday olmay,

Dod-voy solar Nog’ora.

Parvo qilmas odamlar,

O’yin bilan ovora

(”Endi zerikmayman”, 41)

”Childirma” she’rida:

Qichqirib aytar gapi

Faqat: ”bak-bak-umbak”.

Shuni ham aytmas, uni

Tarsakilab turmasang

(”Endi zerikmayman”, 44)

”Telefonning radioga luqmasi” she’rida esa:

To'g'ri, aytilmog'i shart

Dardlar ko'pdir yurakda.

Lekin faqat javramay

Tinglamoq ham kerak-da

(“Endi zerikmayman”, 53)

Misollardan ko'rinib turganidek, shoir predmetlarning shunchaki topib chizilgan tashqi belgilarigagina e'tibor bermasda, balki ushbu belgilar tasvirining mohiyatiga inson fe'l-atvori bilan bog'liq teran badiiy mazmunni ham joylay oladi.

Bolalar adabiyoti, jumladan, bolalar she'riyati bolalik olamining chin ma'nodagi kashfiyotchisi va o'ziga xos ko'zgusidir. Unda faqat bolalarga xos turfa tuyg'ular, orzu – umidlar, ideallar o'z aksini topadi.

Ma'lumki, kattalarda xarakter xususiyatlari to'liq shakllangan bo'lib, hayotdagi har bir hodisaga aql-mushohada orqali yondashadi va o'z munosabatini belgilaydi. Ular tabiati barqarorligi bilan ajralib turadi. Shu bois kattalar orasida uchraydigan salbiy tiplar o'ziga xos jihatlari bilan farqlanib turadi va ularning adabiyotdagi tasviri ham alohida satirik bo'yoqlarni taqazo etadi. Bolalik olami esa beqarorlik bilan kechadi. Ular tabiatida uchraydigan ba'zi bir nuqsonlar, qusurlar vaqt o'tishi bilan aqlning quyulishi, fikrlarning tiniqlashuvi, o'qish va bilim olish natijasida ijobiy tomonga o'zgarishi mumkin. Qolaversa, bolalarni to'g'ri yo'lga solish kattalarning muhim burchi sanaladi. Bolalar adabiyoti kattalar tomonidan yaratilar ekan, ana shu vazifani bajarishga yo'naltirilishi tabiiydir.

O'tgan asrning 70-80-yillari bolalar she'riyati bir qator jihatlari bilan avalgilaridan farq qiladi. Bu davr she'riyatida umumshe'riyatga xos bo'lgan sifat o'zgarishlar xarakterlidir. Ma'lumki, bu davr o'zbek adabiyotida muhim o'tish davri – yangicha badiiy tafakkur va poetik izlanishlar davri hisoblanadi. Bu davr adabiyotida inson ruhiyati, uning ma'naviy olamini o'ziga xos poetik izlanishlar – yangicha poetik obrazlar, ramz va timsollar vositasida ifodalashga e'tibor kuchaya

boshladi Ijodkor konsepsiyasi, voqelikka va badiiy soʻzga munosabati oʻzgaradi. Badiiy soʻz va nigohini insonning ijtimoiy hayotdagi oʻrni va faoliyatiga emas, balki eng avvalo uning ruhiy olamini, qalb evrilishlarini kashf etishga qarata boshladi. Bolalar adabiyotining muhim jihatlaridan biri shundaki, ijodkor uchun bola ruhiyatining realistic yoki hajviy talqinini butun mohiyati bilan badiiy mukammal tasvirlash har doim oson kechavermaydi. Zero, sirtdan sodda va begʻubor olam boʻlib tuyuladigan bolalikning oʻziga xos yashirin sir-asrorlarini poetic kashf qilish nihoyatda mashaqqatli jarayon. Shu boisdan ham, shoirlar bolalarga atalgan sheʼrlarida koʻproq majoziy obrazlar yaratishga harakat qilishadi. Bunday ijod jarayonida ular oʻzlarini erkin his qilishib, shartlilik asosidagi tasvir usullaridan foydalanishadi.

Oʻtgan asrning 70–80-yillar bolalar sheʼriyatida bevosita bolalarning satirik obrazi yaratilgan sheʼrlarning kam uchrashi, ular koʻproq majoziy va allegorik obrazlar shaklida namoyon boʻlishini kuzatish mumkin. Jumladan, R. Tolibovning “Bitta yomon”, “Bir majlis”, A.Koʻchimovning “Oʻrtalik”, “Mish-mishvoy”, “Men gʻiybatchi emasman”, “Hiyla”, Rustam Nazarning “Dahshat”, “Zoologiya muallimining hikoyasi”, “Taʼtil”, “Uyquchining armoni”, “Bahs”, “Hamyon”, “Ota-onalar majlisi”, “Kutubxonachi minbari”, “Tartib”, “Qirdagi lolalar”, “Jurʼatsiz oʻgʻlon”, U.Shukurovning “Bir aʼlochi, bir yalqov”, H.Imomberdiyevning “Alixoʻja Xoʻjaali”, “Hamyon”, “Turdi oʻgʻri va Ketmonvoy”, “Tabiatning xatosi”, “Shirinliklar oroli”, “Urishqoqlar”, “Olaboʻji”, “Temir tirnoq” kabi sheʼrlari shu jihatdan xarakterlidir.

Kattalar va bolalar oʻrtasidagi munosabat bilan bogʻliq holda satirik obraz yaratish Abdurahmon Akbar ijodiga ham xos xususiyatlardir.

Bu oʻrinda shuni ham qayd etish kerakki, 70 – 80-yillar oʻziga xos bir davr – ijtimoiy-maʼnaviy qarashlarning oʻzgarishi, yangilanishi davri hamdir. Binobarin, ana shu – maʼnaviyatizdagi tub oʻzgarishlar ijodkorlar oldiga ham ulkan talablarni qoʻydi. Bir paytlarda madh etilgan, koʻkka koʻtarilgan koʻplab mavzularni hayotning oʻzi siqib chiqardi, ortiqcha narsa sifatida bahridan oʻtdi. Inchunin, 70 –

80-yillar shu ma'noda uyg'onish, tozarish fasli hamdir. Shu davrda xalqimiz tom ma'noda uyg'ondi, o'zligini qayta idrok etdi, ming yillik qadriyatlarga, e'tiqodlariga qaytdi. Ana shu jarayonda o'zbek bolalarining she'riyatining ham kamtarona o'rni, o'ziga xos xizmati bor. Bu davr bolalar she'riyatining eng sara namunalari shu ma'noda yosh avlod qalbida istiqlol tuyg'ularining chechak ochishiga, haqiqiy, tom ma'nodagi ona - Vatan - kindik qoni to'kilgan muqaddas Zaminga mehr-muhabbat; ona zaminni, uning betakror tabiati – qir-adirlarini, tog'-u o'rmonlarini, bog' - rog'larini, daryo-yu ko'llarini avaylab-asrashga, kun sayin ko'z o'ngimizda qurib, yo'qolib borayotgan yakka-yu yagona dengizi – Orolni saqlab qolish uchun kurashish tuyg'ularini shakllantirishga; "O'zbekiston" deb atalmish ana shu muqaddas Vatanga, uning nomini olamga tanitgan buyuk farzandlari – mutafakkir olim-u shoirlari, ulug' Turkiston yagonaligi uchun kurashgan sohibqiron tojdorlari sha'niga munosib farzand bo'lish ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shu o'rinda shoirning "Alla" she'ridagi quyidagi misralar beixtiyor yodga tushadi:

Ana, Bo'ri kelyapti!

Uxlay qol, ovunchog'im.

Qo'y shunday deb qo'rqitib,

Uxlatar qo'zichog'in.

Vuy, anovi ilonni!

Uxla tez, bolajonim, -

Chumchuq shunday qo'rqitib,

Uxlatar palaponin.

Uxla, Olabo'ji-yov

Ko'rsatgan qorasini. –
Odam shunday qo'rqitib,
Uxlata bolasini.
Ona burgut allalar:
Uxla, kuchga to'lib o's.
Ushbu tog'-tosh, osmonning
Hukmdori bo'lib o's!
Pisand etmay xatarni
Shundanmi palaponi,
Tushlarida charx urar
To'ldirib keng samoni.

Nazarimizda, ushbu kichik she'r katta tarbiyaviy-ma'rifiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o'zbek bolalar adabiyoti mustaqil O'zbekistonning kelajagini yaratuvchi yosh avlod tarbiyasiga mas'ul ekan, farzandlarimizning erksevar, mard, komil insonlar bo'lib yetishuvi yo'lida doimo baland pardalarda yangramog'i kerak. Toki ijodkorlarimizning har bir asari yosh kitobxon qalbida ezgulikning, insoniylikning bir niholi ildiz otishiga xizmat qilsin. Ana shundagina bolalar adabiyoti o'z missiyasini muvaffaqiyat bilan ado etgan bo'ladi.

Shoirning ushbu she'ri, dastavval, shu jihati bilan e'tiborga molik. Zero, Ona Burgut palaponini qalbiga "ushbu tog'-tosh, osmonning hukmdori bo'lib o'sish"ni go'dakligidan alla bilan singdirayotganligi sababli burgutcha hatto tushida ham keng samoni to'ldirib charx uradi. Inchunin, mustaqil yurtimizning kelajagi bo'lmish farzandlarimiz ham bolalikdan o'zlarining shu aziz

vatan egalari, uning baxt-saodatini, porloq kelajagini yaratuvchilar ekanliklariga komil ishonch ruhida tarbiyalanmoqlari lozim. Bu o'rinda shuni ham qayd etish kerakki, 70 – 80-yillar o'ziga xos bir davr – ijtimoiy-ma'naviy qarashlarning o'zgarishi, yangilanishi davri hamdir. Binobarin, ana shu – ma'naviyatizdagi tub o'zgarishlar ijodkorlar oldiga ham ulkan talablarni qo'ydi. Bir paytlarda madh etilgan, ko'kka ko'tarilgan ko'plab mavzularni hayotning o'zi siqib chiqardi, ortiqcha narsa sifatida bahridan o'tdi.

O'zbek bolalar she'riyatida Vatan mavzusi, yuqorida qayd etilganidek, bolalar adabiyotining ilk qadamlaridan boshlanadi. Shoirlarimiz dil tug'yonlarining eng baland pardalarini doimo aziz-u mukarram ona-Vatan vasfiga bag'ishlaydilar, uning go'zalliklarini to'lib-toshib madh etadilar. Zero, Vatan Ona qadar muqaddas, Ona qadar mukarram, Ona qadar musaffodir. Vatanning noz-ne'matlari, boyliklari qanchalik qadrlil, bog'u bo'stonlari, gulzor-u chamanzorlari qanchalik go'zal bo'lsa, tog'-u toshlari, cho'l-u biyobonlari ham shunchalar go'zal va qadrlidir. Binobarin, vatanparvar shoir Vatanning qahraton qishida ham, jazirama yozidan ham, to'kin-sochin kuzidan ham birday go'zallik izlaydi va kashf qiladi:

Eman bargi tovusning

Quyruq'iday serhasham.

Kiyik yurgan so'qmoqlar –

Qirda yo'l-yo'l beqasam.

Ayiq qorga yo'l oldi,

Piymasini ivitgan.

Quyvon po'stin tikibdi

O'ziga oq tivitdan.

Яшил тароқ арчалар

Кенг ёзиб қулочини,

Эринмасдан шамолнинг

Тараф пахмоқ сочини.

Ona-Vatan tabiati oshuftasi shoirning "Chilla chiqib" sarlavhali ushbu she'rida Vatan qishining mukammal manzarasi chizilgan.

She'riyatning go'zalligi shundaki, shoir biz har kun ko'rib yurgan, biz uchun odatdagi narsaga aylanib qolgan tabiat manzaralarini o'zgacha ko'z bilan ko'radi: biz uchun shunchaki daraxt bo'lib ko'rinadigan eman bargining tovu dumiday go'zal, hashamdorligini kashf qiladi, kiyik yurgan so'qmoqlarning oppoq qorga burkanib yotgan qirlarda beqasamning yo'l-yo'l chiziqlariday tovlanishini idrok etadi; uning nazdida archa daraxtlari qulochini keng yoyib, betizgan shamolning paxmoq sochlarini erinmasdan yashil taroqlari bilan tarayotgan odamga aylanadi. Nazarimizda, xuddi ana shu betakror, kutilmagan o'xshatishlar she'rga jon baxsh etadi, yosh kitobxon ko'z o'ngida Ona tabiatning jonli, mukammal manzarasini yaratadi, tabiatning har bir sahifasi, jumladan, dov-daraxt uyquga cho'mgan, hamma yoq oppoq qor bilan qoplangan, issiq uyda o'tirib o'qiyotgan kitobingdagi tasviriyoq etingni junjiktirib yuboradigan qahraton qish ham yosh kitobxon ko'z o'ngida o'zgacha qiyofada aks etadi, yashirin go'zalligini namoyon qiladi, G'afur G'ulom aytmoqchi, "Biz uchun qadrdon qish"ga aylanadi.

Shoirlarimiz ona-Vatan tabiatining oshifta kuychisi sifatida o'z she'rlarida bu aziz Vatan tabiatning rango-rang manzaralarini yaratar ekanlar, shu bilan bir qatorda, ulkan ma'naviy-ma'rifiy vazifani ham bajaradilar. Zero, bolalar adabiyoti mustaqil O'zbekistonning kelajagini yaratuvchi yosh avlod ma'naviyatini shakllantirishga ham mas'uldir. Erta-indin ulg'ayib, jazirama issig'-u qahraton qishni pisand qilmay, kechani kecha, kunduzni kunduz demay, Vatan sarhadlariga

posbonlik qiladigan bo'lg'usi vatanparvar askar yigitlar ham, Vatan tuprog'ini gullab-yashnagan bog'-u bo'stonga aylantiruvchi fidokor dehqon ham, xullas, o'z halol mehnatini ona-Vatan baxt-saodatiga baxshida etadigan barcha kasb egalari bo'lmish insonlar ushbu ijodkorlar asarlarini o'qib, tom ma'nodagi vatanparvarlar bo'lib yetishadilar. Ona-Vatan go'zalligini madh etuvchi xuddi ana shunday she'rlar yosh kitobxon qalbini go'zallikka oshno qiladi. Go'zallik tuyg'usi bilan to'liq qalblar esa vayron qiluvchi emas, balki yaratuvchi bo'ladilar.

Bolalar uchun yaratilgan she'riy asarlarda tabiat manzaralari, hayvonot-u nabobot tasvirlari sezilarli o'rin egallashi bejiz emas. Bu tasvirlarda yosh kitobxonni, avvalo, Ona tabiat bilan tanishtirish, oshno qilishdek ezgu niyat bor. Zero, tabiatning barcha go'zalliklari, barcha ne'matlari, dastavval, Inson uchun ekanligi ham shubhasizidr. Inson o'z nomi bilan tabiatning farzandi; yer usti-yu ostidagi, suv-u havodagi barcha ne'matlar bani Odamning rizq-nasibasi. Bolalar she'riyatida Inson tasvirining yetakchi mavqe kasb etishi ham aslida shundan. Shoirning "O'zbek" she'ri ana shu Inson, xalq tasviriga urg'u berilgani bilan ham e'tiborga loyiqdir. She'riy dastlabki satrlaridanoq bag'ri keng o'zbek qiyofasiga chizgilar chizila boshlaydi:

Sig'masa ham o'zi, do'stga

Joyi bor uning,

Yo'lovchiga "Bir piyola –

Choy"i bor uning.

Darhaqiqat, o'zbek qiyofasini belgilovchi qirralar, avvalo, uning bag'ri kengligi bilan bog'liqdir. Serfarzand, bolajon o'zbek bola-baqralari bilan o'z uyida zo'rg'a sig'ib turgan bo'lsa-da, mehmonni "atoyi xudo" deb biladi, uyining to'rini mehmonga bo'shatib beradi, qozoniga har kuni bir parcha go'sht tashlashga

qiynalsa-da, mehmonning oyog‘i ostiga qo‘y so‘yadi. Xatto ko‘chadan o‘tib ketayotgan yo‘lovchiga ham albatta bir piyola choy taklif qiladi.

Egatlardan topgan qaddi –

Yoyi bor uning,

Har yil yozda imorati,

Loyi bor uning.

O‘zbek qiyofasini belgilovchi yana bir xarakterli qirra uning mehnatsevarligidir. O‘zbek erta bahordan kech kuzgacha peshana teri bilan topgan halol daromadi hisobidan boqadi. Binobarin, o‘zbek uchun ”halol mehnat” tushunchasi qanchalik xarakterli bo‘lsa, ”halol daromad” tushunchasi ham u bilan bab-baravardir. Shu sababli ham o‘zbekning qaddi og‘ir mehnatdan egik bo‘lsa-da, qalbi pok, ko‘ngli ochiq. Mehnatsevar o‘zbek faqat dalada mehnat qilibgina qolmaydi. U o‘zining huzur-halovatini emas, bola-chaqasining kelajagini o‘ylaydi. O‘g‘il uylantirish, qiz chiqarish, xalq oldiga dasturxon yozib, oq fatihasini, duosini olish o‘zbek uchun eng katta boylik. Shu boisdan ham u har yil yozda loy qilib, imorat quradi – bola-chaqasining baxtli kelajagini ta’minlaydi. Chunki:

O‘g‘il-qizi – yorug‘ yulduz,

Oyi bor uning,

O‘chmas izi, bosadigan

Toyi bor uning.

Binobarin, "Ot izini bosadigan toylar"i, "oy-u yulduz"lari uchun mehnat qilishdan o'zbek hech qachon charchamaydi va ana shu tuyg'u – bolajonlik ham ajdoddan ajdodga ming yillar davomida aziz-u mukarram meros bo'lib o'taveradi. Shu bois ham o'zbekning doimo chehrasi ochiq, bag'ri ochiq, dasturxoni ochiq. Shuning uchun ham yaratganning o'zi bu jannatmakon diyorni o'zbekning makoni qilib yaratgan. She'ning oxirgi misralari:

Do'ppisini ko'kka otib

Shodlansa arzir,

O'zbekiston degan jannat

Joyi bor uning

satrlati bilan yakunlanar ekan, bunda shoirning ana shunday ulug' el farzandi ekanligida farx va g'urur tuyg'ulari yangraydi. Ulug' xalqimiz sha'niga bitilgan qanchadan qancha faxriya-yu madhiyalar safida kichkintoy kitobxonlarga mo'ljallangan ushbu mo'jaz she'ning ham o'z o'ri bor. U yosh kitobxon qalbida g'urur-u iftixor tuyg'ularini uyg'otadi, o'zligini belgilashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi kuzatishlardan shunday xulosa chiqarish mumkin:

- So'nggi davr bolalar she'riyatida yumoristik obraz yaratishda, asosan, ikki yo'nalish ustivorlik qiladi.

Birinchi yo'nalishni bevosita bolalarning yumoristik obrazi yaratilgan she'rlar tashkil etadi. Bu tipdagi she'rlarda shoirlar bolalar tabiatida uchrab turadigan ayrim sho'xlik va o'yinqarorliklarni, dangasalik va to'palonchilik odatlarini quvnoq qahqaha bilan fosh etadilar. Shu jihatdan T.Adashboyev, Anvar Obidjon, Dilshod Rajab, Abdurahmon Akbar kabi shoirlar yaratgan hajviy obrazlar

alohida ahamiyatga egadir. Bu shoirlar asarlarida obraz ruhiyatidagi yetakchi xususiyatlar yumoristik kulgi vositasida ta'sirchan qilib tasvirlanadi.

Ikkinchi yo'nalishni majoziy she'rlar tashkil etadi. Bunda turli dov-daraxtlar, narsa-hodisalar, hayvonlar, jonivorlar, parranda-yu darrandalarning majoziy xarakterdagi yumoristik obrazlari yaratilganini kuzatish mumkin. Bu obrazlar faqat shakl-shamoyili bilan emas, balki poetik mazmunga ko'ra ham mukammal yumoristik obrazlar darajasiga ko'tarilgandir. Bu tipdagi obrazlarni yaratishda mavjud ijodiy an'ana va vorisiylik katta ahamiyatga kasb etadi.

UMUMIY XULOSA

Har bir davr adabiyoti ma'lum ma'noda shu davr ijtimoiy-siyosiy hayotining o'ziga xos badiiy in'ikosi bo'lar ekan, 70 – 80-yillar o'zbek bolalar she'riyatini shu ma'noda dolg'ali, qasirg'ali davr she'riyati deb baholash mumkin. Zero, 70–80-yillarning birinchi yarmida hurfikrlilikning keskin bo'g'ilishi dastlab badiiy adabiyotda, ayniqsa, she'riyatda majoziy fikr kuchayishi, ijodkorlar dardlari imo-ishoralar, ramzlar, majozlarga ko'chishi bilan xarakterlanadi. Bolalarga bag'ishlangan asarlar mazmun jihatidan ham bir necha turkumlarga ajratiladi va bunday toifalashda tasvir uslubi asosiy o'rin tutadi. Zero, bolalarga mo'ljallangan asarlarning bir qismida ijodkorlar katta hayot tajribasiga ega bo'lgan yoshi ulug'kishi sifatida o'z qarashlarini yosh bolaning tasavvur va qarashlari bilan uyg'unlashtirib ifodalasalar, yana bir qismida bevosita bolalar nomidan hikoyalash uslubi ustivor.

Abdurahmon Akbar she'rlarida biz yanada o'zgacha qahramonga duch kelamiz. Bu og'ir-bosiq, o'ychan, vaqtdan ilgariroq ulg'ayib qolgan bolakaylar qalbidagi davrlar ayni 70 – 80-yillar bolalarning o'y-fikrlariga eshligi bilan ham shoir qalamidan to'kilgan samimiy tuyg'ular in'ikosi sifatida namoyon bo'ladi.

Binobarin, aynan kichik yoshdagi kitobxon bunday she'rni “mehnat” qilib, boshqotirma yechganday o'qiy olganidan zavqqa to'ladi. Abdurahmon Akbar ijodidagi raqamli she'rlarning mazmun jihatidan mukammalligi esa o'z-o'zidan, shakl va mazmun uyg'unligini ta'minlaydi. Bolalar adabiyotida Abdurahmon Akbarning raqamli va rasmlilari alohida o'rganilmagan. Biz mazkur bitiruv malakaviy ishimizda shoir Abdurahmon Akbar ijodining kam yoritilgan qirrasini o'rganishga harakat qildik. 80-yillarning ikkinchi yarmida demokratiya shabadalarining kun sayin kuchliroq esa boshlashi badiiy adabiyotda tom ma'nodagi erksevarlik tuyg'ularining ochiq-oydin namoyon bo'lishini quyidagilarda ko'rish mumkin:

Birinchidan, 70–80-yillarning birinchi yarmida hurfikrlilikning keskin bo‘g‘ilishi bolalar she’riyatda majoziy fikrlarning kuchayishi, ijodkorlar dardlari imo-ishoralar, ramzlar, majozlarga ko‘chishi bilan xarakterlanganligini ko‘rsatish davrning eng muhim xususiyatlardan biri ekanini isbotlandi.

Ikkinchidan, 80-yillarning ikkinchi yarmida demokratiya shabadalarining kun sayin kuchliroq esa boshlashi bolalar adabiyotida ham erksevarlik tuyg‘ularining ochiq-oydin namoyon bo‘lishi Abdurahmon Akbar ijodining o‘ziga xosligini belgilashga xizmat qilganligi e’tirof etildi.

Uchinchidan, Abdurahmon Akbar ijodida harflarni raqamlarda ifodalanishi, rasmlar orqali bolalar shuurini o‘stirish, yangi shakllardagi she’rlarning bolalar she’riyatida paydo bo‘lishi kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. –T.: O‘zbekiston, 1995.
2. Karimov I. A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni - millat qilishga xizmat qilsin. T. – T.: O‘zbekiston, 1998.
3. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.

II. Ilmiy adabiyotlar:

4. Barakayev R. Jonajonim shariyat. Toshkent. Cho‘lpon nashriyoti. 1997
5. Jumaboev M. O‘zbek bolalar adabiyoti.T.2002.
6. SHermuxamedov S, Tursunov Sh, O‘zbek bolalar adabiyoti.T. 1976.
8. Ahmadboeva M, Ibrohimova S. O‘zbek adabiyoti. T. 1978.
9. O‘zbek bolalar adabiyoti antologiyasi. ikki jildlik. 1-jild. SHe’riyat. Toshkent. 2006.

III. Badiiy adabiyotlar:

10. Zafar Diyor.Asarlar. Toshkent,1954
11. Jumaboev M, Suvonov A.Bolalar adabiyoti. Qo‘llanma. T. 1994
12. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20 - jildlik. 7, 8, 11 - jildlar. – T.: Fan, 1991-1993 yy.
13. O‘zbek xalq ertaklari. Zumrad va Qimmat. – T.: O‘zbekiston, 1990.
14. Kichkintoy va paxtaoy. Toshkent. 1987.
15. So‘zlovchi yomg‘ir. Toshkent 1990.
16. Ehtiyotkor toshbaqa. Toshkent. 1991.
17. Yozning tug‘ilgan kuni. Toshkent. 1992.
18. Kuylayotgan bog‘. Toshkent. 1994

O‘zbek filologiya fakulteti IV – kurs talabasi Mahmudova
Farangizning “Abdurahmon Akbarning lirik qahramon yaratish
mahorati” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Ma’lumki, bolalarga bag‘ishlangan asarlar mazmun jihatidan ham bir necha turkumlarga ajratiladi va bunday toifalashda tasvir uslubi asosiy o‘rin tutadi. Zero, bolalarga mo‘ljallangan asarlarning bir qismida ijodkorlar katta hayot tajribasiga ega bo‘lgan yoshi ulug‘ kishi sifatida o‘z qarashlarini yosh bolaning tasavvur va qarashlari bilan uyg‘unlashtirib ifodalasalar, yana bir qismida bevosita bolalar nomidan hikoyalash uslubi ustivor. Shu ma’noda Abdurahmon Akbar ijodini o‘rganish bugungi kun nuqtai nazardan dolzarblik kasb etadi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishiga tadqiqot obyekti sifatida tanlangan Abdurahmon Akbar ijodida biz yanada o‘zgacha qahramonga duch kelamiz. Bu og‘ir-bosiq, o‘ychan, vaqtidan ilgariroq ulg‘ayib qolgan bolakaylar qalbidagi davrlar ayni 70 – 80-yillar bolalarning o‘y-fikrlariga eshligi bilan ham shoir qalamidan to‘kilgan samimiy tuyg‘ular in’ikosi sifatida o‘ziga xos talqin etilgan.

Bitiruv malakaviy ishning yana bir o‘ziga xos jihati shundaki, kichik yoshdagi kitobxon Abdurahmon Akbar she’rlarini “mehnat” qilib, boshqotirma yechganday o‘qiy olganidan zavqqa to‘ladi. Shoir raqamli she’rlarning mazmun jihatidan mukammalligi esa o‘z-o‘zidan, shakl va mazmun uyg‘unligini ta’minlaydi. Bolalar adabiyotida Abdurahmon Akbarning raqamli va rasmlil she’rlari alohida o‘rganilmagan. Tadqiqotchi mazkur bitiruv malakaviy ishida shoir Abdurahmon Akbar ijodining kam yoritilgan qirrasini o‘rgangan va shoir ijodining o‘ziga xos qirrasini ishda mahorat bilan ochib berilgan.

Ishni himoyaga tavsiya etish maqsadga muvofiq deb o‘ylayman.

:

S.Mo‘minova, filologiya fanlari nomzodi

O'zbek filologiyasi fakulteti IV – kurs talabasi Mahmudova
Farangizning “Abdurahmon Akbarning lirik qahramon yaratish
mahorati” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Ushbu bitiruv malakaviy ishiga tadqiqot obekti sifatida tanlangan bolalar shoiri Abdurahmon Akbar ijodi tanlangan.

Tadqiqotchi o'zbek bolalar adabiyotining taraqqiyot tamoyillari masalasini yoritish jarayonida shoir Abdurahmon Akbarning ijodi, bolalar she'riyatiga yangi shakliy ko'rinishlarning olib kirganligi hamda harflarni raqamlarda ifodalanish san'atini yoritishni o'z oldiga maqsad etib qo'ygan.

Abdurahmon Akbar she'rlarida biz yanada o'zgacha qahramonga duch kelamiz. Bu og'ir-bosiq, o'ychan, vaqtidan ilgariroq ulg'ayib qolgan bolakaylar qalbidagi davrlar ayni 70 – 80-yillar bolalarning o'y-fikrlariga eshligi bilan ham shoir qalamidan to'kilgan samimiy tuyg'ular in'ikosi sifatida namoyon bo'ladi.

BMI xulosalari 80-yillar o'zbek bolalar she'riyati taraqqiyotini Abdurahmon Akbar ijodi misolida dalillashning usullari va uslubini, rang-barang ko'rinishlarini ochib berish jihatidan muhim. BMI materiallaridan kollej va litseylarda o'zbek bolalar adabiyoti, xususan she'riyati bo'yicha nazariy va amaliy o'quv mashg'ulotlari olib borishda, shuningdek, tanlov fanlarini o'qitishda foydalanish mumkin. Bular tadqiqotning amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Ishni himoyaga tavsiya etaman.

Qarshi pedagogika kolleji o'qituvchisi:

S.Haqberdiyeva

